

OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA OʻRTA MAXSUS TAʼLIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI

ʻTASVIRIY SANʻAT VA MUXANDISLIK GRAFIKASIʻ
TAʼLIM YOʻNALISHI

402 - gurux bitiruvchi talabasi
ERMATOVA NARGIZANING

ʻUmumtaʼlim maktablari tasviriy sanʻat darslarida xalq amaliy bezak
sanʻatidan foydalanib darslar samaradorligini oshirishʻ mavzusidagi

BITIRUV

MALAKAVIY ISHI

Ilmiy raxbar:

A. O. Mahmudov

Andijon 2017

MUNDARIJA

Kirish ë 3 - 5

1. Bob. Oʻrta umumtaʼlim maktablari tasviriy sanʼat darslarining tuzilishi va mazmuni ë ..ë 6 - 11

1.1 Tasviriy sanʼat oʻqitish metodikasining didaktik asoslari ë ë ë ë ë 12 - 31

1.2 Oʻrta umumtaʼlim maktablari tasviriy sanʼat darslarida oʻquvchilarni sanʼatni idrok qilishga oʻrgatish ë ..ë . 32 ñ 33

2. Bob. Oʻrta umumtaʼlim maktablari tasviriy sanʼat darslarida xalq amaliy bezak sanʼat tarixini bogʻliq xolda oʻqitilishining afzalliklari...ë ë 34 ñ 44

2.1. Oʻquvchilarga xalq amaliy bezak sanʼati oʻrgatish orqali amaliy sanʼatga boʻlgan qiziqishini oshirishë ë ë ë ë ë ë ë ë ë ë ..ë ë 45 ñ 50

2. 2 Oʻquvchilarga ganchkorlik sanʼati orqali sharqona odab ahloq munosabatlarini singdirish ë .. ë .ë ë ë ë ë ë ë ë ë ë ë ë ë ë ë ..ë .ë ë ë ë ë ë ë 51 ñ 68

Xulosa ë ... 69 ñ 70

Foydalanilgan adabiyotlar ë .. 71

Ilovalar ë ë ë ë ë ë ë ë ë ë ë ë ë ë ë ë ë ë ë ..ë ë ë ë ë ë ë ë ë ë .. 72

Kirish

Tarix xotirasi xalqning, jonajon oʻlkamizning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy oʻzlikni yangilashni, taʼbir joiz boʻlsa, milliy iftixorni tiklash va oʻstirish jarayonida gʻoyat muhim oʻrin tutadi. Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda. Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan maʼnaviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan maʼnaviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni oʻzida mujassam etgan buyuk arboblarning koʻpi boʻlgan.

Imom at Termiziy, Imom al Buxoriy, Hoja Bahovuddin Naqshbandiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Al Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulugʻbek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa koʻplab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizning rivojlanishiga ulkan xissa qoʻshdilar, xalqimizning milliy iftixori boʻlib qoldilar. Ularning nomlari, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qoʻshgan buyuk xissalari hozirgi kunda butun dunyoga maʼlum. Madaniyat va sanʼat, uning rivojlanish jarayoni tarixini bilish oʻqish va oʻrganish n bu bizning kelajak dunyoviy tafakkurimizning qay darajada boʻlishligini belgilab beradi.

Respublika hukumati hamda Oʻzbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan jamiyat ijtimoiy taraqqiyotini taʼminlashda muhim subʼektlar sanaluvchi barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tayyorlash masalasiga jiddiy eʼtibor berilmoqda.¹

Uzluksiz taʼlim tizimini tashkil etish borasidagi ijtimoiy harakat mohiyatini toʻlaqonli yoritib bergan Oʻzbekiston Respublikasining oʻTaʼlim toʻgʻrisida oʻgi Qonuni va oʻKadrlar milliy dasturi oʻ mazmuni, gʻoyalari taʼlim-tarbiya jarayonining ishlab chiqarish tizimi bilan integratsiyalashuviga erishish zarurligini koʻrsatadi.

Taʼlim-tarbiya hamda ishlab chiqarish tizimlarining integratsiyalashuvi

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq. T.: Sharq, 1998.

ijtimoiy jamiyat hayoti uchun muhim boʻlgan quyidagi holatlarning qaror topishini taʼminlaydi:

- birinchidan, umumiy oʻrta taʼlim maktablari oʻquvchilarining zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan faol muloqotda boʻla olish imkoniyati yuzaga keladi, nazariy bilimlarni ishlab chiqarishda, amaliyotda qoʻllash, shuningdek, muayyan yoʻnalishda kasbiy faoliyatni samarali tashkil eta olish malakalari shakllanadi;
- ikkinchidan, oʻquvchilar tomonidan fan asoslarini oʻzlashtirilishi muayyan kasbiy faoliyat koʻnikma va malakalarining shakllanishi xalq xoʻjaligining turli sohalarini har jihatdan yetuk, barkamol shaxs va malakali mutaxassislar bilan taʼminlanishiga zamin yaratadi.

Istiqlol munosabati bilan respublikamizning barcha xududlarida yangi zamonaviy oʻquv dargohlari n kollejlar, litseylar bunyod etilmoqda. Eski maktablar oʻrnida barcha qulayliklarga ega boʻlgan eng zamonaviy jixozlardan laboratoriya, xona tizimiga moslashtirilgan va kompyuterlashtirilgan oʻquv yurtlari qad koʻtarmoqda.

«Taʼlim toʻgʻrisidagi» qaror mustahkam poydevor hosil qilib amalga oshirilmoqda. Bunga javoban fan oʻqituvchilari oʻzlarining yangi pedagogik texnologiyalarni qoʻllash orqali oʻqitish samaradorligini oshirish yoʻllarini takomillashtirishga intilishmoqda.²

Ushbu bitiruv malakaviy ishda umumtaʼlim maktablari tasviriy sanʼat darslarining tuzilishi, tasviriy sanʼat darslariga qoʻyiladigan talablar, tasviriy sanʼat darslarini tashkil etish va oʻquvchilarni qiziqishlariga qarab maʼlum dars mashgʻulotlarini chuqurlashtirgan holda oʻqitish jarayonlari yoritishga harakat qildim.

Mavzuning dolzarbligi: Boʻlajak umumiy oʻrta taʼlimi oʻqituvchilari nafaqat fan asoslarini, balki ular eng zamonaviy ilmiy pedagogik texnologiyalarni egallagan boʻlishlari, oʻzlarining pedagogik masʼulatlarni toʻliqsiz bajarib

² O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. "Ma'rifat" gazetasi 1997-yil 1-oktabr.

b^ol^{ish}lari talab etiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda har bir pedagog bugungi kun talabiga javob bera oladigan darajada ta^olim texnologiyalarini bilishi zaruriydir.

Tadqiq^{at} maqsadi: R^ospublikamiz k^ol^{ajagi}, ravnaqi, ta^olim-tarbiya s^ohasidagi ishlarning qay tarzda t^olib b^ol^{ish}ishiga b^ol^go^qliq.

Ta^olim-tarbiya sohasini takomillashtirish bu borada yangi, zamonaviy, ilg^oo^r pedagogik texnologiyalarni joriy etishning tizimli asoslarini yaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan xisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslarini yaratish va uni ma^olum bir tizimga solish davr talabidir. Shuning uchun ham hurmatli prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev 2017 -2021 yillar uchun harakatlar strategiyasini ishlab chiqdilar. Uning 4.4. Ta^olim va fan sohasini rivojlantirish: uzluksiz ta^olim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta^olim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish; ta^olim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta^omirlash, ularni zamonaviy o^oq^{uv} va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o^oq^{uv}-metodik qo^ollanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko^orish, yuzasidan bir qancha fikrlar bildirganlar.

Tadqiq^{at} t^ol^oki: Umumta^olim maktablari o^oq^{uv}chilari va tasviriy san^oat dars mashg^olotlari

Tadqiq^{at}ning m^ol^lat^ligik as^osi: O^oz^ol^okist^on R^ospublikasi K^onstitutsiyasi, O^oz^ol^okist^on R^ospublikasining «Ta^olim to^og^orisida»gi Q^onuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O^oz^ol^okist^on R^ospublikasi birinchi Pr^ozid^onti I.A.Karim^ovning asarlari va ma^oruzalarida bayon qilingan ta^olimni is^lat^h qilish s^ohasidagi yondashuvlar, qarashlar, ta^olim jarayonini tak^omillashtirishga yo^onaltirilgan O^oz^ol^okist^on R^ospublikasi Vazirlar Mahkamasining qar^orlari, t^ol^oq ta^olimi vazirligining buyruqlari, mavzuga t^oid ilmiy-p^ol^odag^ogik, manbalar.

1. Bob. Oʻrta umumtaʼlim maktablari tasviriy sanʼat darslarining tuzilishi va mazmuni.

Oʻquvchilarda ijobiy qobiliyatlarini, koʻrish xotirasi, marom va uygʻunlik tuygʻulari, hayotdagi va sanʼatdagi nafosatni koʻra bilish hamda anglab yetish mahoratini, rang sezish, emotsional sezgirlik, kuzatuvchanlik va obrazli tafakkurni oʻstirishda, sabr-toqat va fikrni bir joyga toʻplash koʻnikmasini hosil qilishda maktabda tasviriy sanʼat fanining oldiga tushadigan birorta ham oʻquv fani yoʻq. Shaxs kamolotida esa har bir shaxsning turmushdagi va kasbiy faoliyatida bunday xususiyatlar nihoyatda kerak boʻladi. Shu bilan birga bu oʻquv fani inson aql-idrokining hamda uning tevarak-atrofini, undagi voqea-xodisalarini bilish hamda uni oʻzgartirish yoʻllarini oʻrgatadi. U iqtidor va isteʼdodning shakllanuvi uchun keng imkoniyatlarini ochib beradi. Tasviriy sanʼatni oʻqitish jarayonida uning oldiga qoʻyiladigan topshiriqlar esa oʻquvchilarni birdan-bir va betakror va oʻz shaxsini, oʻzining maʼnaviy imkoniyatlarini namoyon etishga sharoit yaratadi.

Muayyan bilimlar, malaka va koʻnikma majmuiga ega boʻlgan kishi faqat ijrochi kishilar, xolos. Jamiyatimiz uchun esa ijrochilar emas, balki ijodkor, tashabbuskor, oʻylovchi va oʻzgartiruvchi kishilar kerak. Ertangi kun ishchisi, muxandisi, olimi maxsus bilimlardan tashqari yaxshi rivojlangan faxm-farosat va ayni chogʻda aniq mantiqiy tafakkur, hayotda koʻzda tutilmagan yangi vaziyatlariga tez va toʻgʻri javob bera olish, kutilmagan nostandart yechimlar topa bilish maxoratiga ega boʻlishi nihoyatda muhimdir. Kishilarning tashabbuskorligi, ijodkorligi, mustaqilligiga keng imkoniyat yaratib berish kerak.

Maktabda badiiy taʼlim mazmunini aniqlashning eng katta va eng qiyin, lekin muhim va asosiy vazifasi ana shundan iborat.

Maktabda badiiy taʼlimning yangi sifat darajasiga koʻtarish birinchi galda oliy maxsus maʼlumotli oʻqituvchilar tayyorlash bilan bogʻliq. Buning kadrlar tayyorlashning mavjud tizimini rassom - oʻqituvchilar tayyorlovchi oʻquv yurtlarining oʻquv rejalarini tubdan oʻzgartirish lozim boʻladi. Busiz konsepsiyada ilgari surilgan gʻoya va rejalarini hal qilib boʻlmaydi. Yangi oʻquv rejalarida oʻzbek xalq amaliy sanʼati, meʼmorchiligini oʻrganish asosiy oʻrinni egallash

kerak boʻladi.

Bu yoʻnalishdagi ishlar sinfdan va maktabdan tashqari toʻgʻarak va studiyalar uchun tasviriy, amaliy va meʼmorchilik sanʼatlari boʻyicha rahbarlar tayyorlashga ham yoʻnaltirilgan boʻlishi lozim. Maʼlumki, akademik litsey va kollejlarda tasviriy sanʼat taʼlimi asoslari milliy madaniyatimizning va uning anʼanalarining, shuningdek, jahon badiiy madaniyati durdonalari asosida belgilanadi. Bu narsa oʻz - oʻzidan qator dastur, darslik metodik qoʻllanma va koʻrgazmalarini qaytadan ishlab chiqishni toqazo etadi va u katta ilmiy - metodik kuchlarni talab qiladi. Buning uchun badiiy taʼlim boʻyicha Oʻzbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti, Oʻzbekiston tasviriy sanʼat muallimlar uyushmasi, viloyat pedagogika va malaka oshirish institutlari, akademik litsey va kollejlardagi mavjud kuchlarini markazlashtirish lozim boʻladi. Bu kuchlar eʼtibori dolzarb muammolarini yechishga qaratilgan. Muammolarini yechishdan avval ularning koʻlami va ishlarining rejasi ishlab chiqiladi.

Mazkur ishlar bilan pedagogika fanlar ilmiy-tadqiqot instituti va RUMM ishtirokida tuzilgan markaz shugʻullanadi. Bu markazda tasviriy sanʼat oʻquv fanining mazmuni va soatlar hajmining xilma-xilligi, sinfdagi oʻrta, yaxshi va yomon oʻzlashtiruvchi oʻquvchilar uchun moʻljallangan dasturlar, metodik qoʻllanma, tavsiyanoma va boshqa materiallar ishlab chiqiladi. Tasviriy sanʼatni oʻqitishning ilmiy-metodik taʼminotida nashr ishlari bilan bir qatorda matbuot, televideniya, maxsus ilmiy- amaliy konferensiyalar, tanlovlar katta rol oʻynaydi.

Maktabda uzluksiz badiiy taʼlimni amalga oshirish, uni talablar darajasida oʻqitilishini hohlar ekanmiz, boshlangʻich sinflarda /mutaxassislar bor joylarda/ tasviriy sanʼat darslarini rassom-oʻqituvchilari olib borilishi shart. Aks holda badiiy taʼlimda ham, qolaversa umuman boshlangʻich taʼlimda ham yaxshi natijalarga erishib boʻlmaydi. Lekin tasviriy sanʼat oʻqituvchilarini boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining yosh xususiyatlarini, oʻziga xos xususiyatlarini, oʻziga xos jihatlarini mukammal bilishlari va ular bilan ish olib borish usullarini egallashlari zarur boʻladi.

Tasviriy sanʼat mashgʻulotlarining bir qismi, ayniqsa tabiatni va mehnat

jarayonlarini idrok etish, tabiiy materiallar yordamida tasvirlash, tabiatdagi ranglarni oʻrganish bevosita tabiat qoʻynida, meʼmorchilik, xalq amaliy va tasviriy sanʼat asarlarini idrok etish esa muzeylar, maydonlar, koʻrgazma zallari hamda sanʼat asarlari va meʼmorchilik obidalari mavjud joylarda, shuningdek rassomlar xalq ustalarining ustaxonalarida amalga oshirilishi lozim.

Maktablarda tasviriy va amaliy sanʼat, meʼmorchilikni oʻqitishning oʻziga xos tomonlarini hisobga olib, mashgʻulotlar uchun kamida ikki sinf xonasi va natura hamda koʻrgazmali qurollar uchun maxsus xona boʻlishi talab etiladi.

Tasviriy sanʼat bevosita oʻquvchilarning ijodiy faoliyatlari bilan bogʻlanganligini hisobga olib, tabaqalashatirilgan taʼlimni joriy etish maqsadida bu mashgʻulotlarni ikki guruxga boʻlib oʻqitiladi.

Tasviriy sanʼat va badiiy mehnat oʻquv fani oʻquvchilarida maʼnaviy madaniyatning ajralmas qismi hisoblangan badiiy va axloqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu oʻquv fani mazmunan integrallashgan kurs boʻlib, u tasviriy sanʼat dekarativ-amaliy sanʼat turlarini oʻz ichiga oladi. Shuning uchun ham bu fandan taʼlim mazmuni avvaligilardan keskin farq qilib, unga umumiy taʼlim mazmunida keng oʻrin berilishi nazarda tutiladi.

Bu oʻquv fanining yana bir oʻziga xos xususiyatlari shundan iboratki, bunday darslarda oʻquvchilarga badiiy bilimlardan tashqari yana tasviriy malakalar shakllantirishdan, ularda kuzatuvchanlik, koʻz xotirasi, chamalash qobiliyalari, obrazli tasavvur kabi koʻnikmalari oʻstirilib boriladi. Tasviriy sanʼatning eng muhim vazifalari oʻquvchida ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy estetik did kabi hislatlarni oʻstirishga qaratilgandir.

Shuni ham yoddan chiqarmas kerakki, Vatanimizga har tomonlama (ham mafkuraviy, ham iqtisodiy, ham madaniy) rivojlangan, ilmiy fikrlaydigan, mustaqil tashabbuskor shaxslar kerak boʻladi, faqat ijodkor kishilargina xalqimizning farovon kelajagini yaratishlari mumkin.

Yana shuni taʼkidlash lozimki, Oʻzbekiston xorijga yuz tutib, hamma fanlardan taʼlimni dunyo standartlari darajasiga olib chiqishni maqsad qilib qoʻygan ekan, badiiy taʼlim, xususan, tasviriy sanʼat taʼlimini ham dunyo

standartlari darajasiga olib chiqish kerak boʻladi.

Buning uchun tasviriy sanʼati rivojlangan mamlakatlarning oʻquv rejalaridagi oʻrnini yaxshi oʻrganish lozim.

Tasviriy sanʼat oʻquv fani rivojlangan mamlakatlarda (AQSh, Angliya, Fransiya, Olmoniya, Italiya v.b.) umumiy taʼlim maktablarining birinchi sinfidan oxirgi sinflargacha har bir sinfda haftaga 2-5 soatgacha oʻqitilib turgan bir paytda, bizda 1-7 sinflarda haftasiga 1 soatdan oʻqitilayotganligini normal hol deb boʻlmaydi. Natijada maktablarda tasviriy sanʼat oʻqituvchilarning tegishli soatlar bilan taʼminlay olmaslik muammosi ham paydo boʻldi. Bu esa koʻpchilik oʻqituvchilarni maktabni tashlab, boshqa sohalarga ishga oʻtib ketishlariga majbur etmoqda.

Har qanday oʻquv fani taʼlim mazmunida albatta oʻzbek xalqi yaratgan beqiyos boy madaniy va maʼnaviy merosni asos qilib olish kerak. Ularni bolalar koʻproq bilishlari shart. Shunday ekan, oʻzbek xalqini dunyoga mashxur qilgan meʼmorchilik, amaliy va tasviriy sanʼatni akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda koʻproq va chuqurroq oʻrgatilishi talab etiladi. Shu bilan birga taʼlim mazmunini viloyat va shaharlar boʻyicha tabaqalashtirilishi ham maqsadga muvofiqdir. Xususan, Samarqand, Buxoro, Xivada meʼmorchilik, dekorativ-amaliy sanʼat kengroq oʻqitilishi mumkin. Chunki, Oʻzbekistonning viloyat, shahar, xattoki qishloqlarida dekarativ-amaliy sanʼat va meʼmorchilikning rivojlanishida oʻziga xoslik bor. Buni Samarqand, Toshkent, Buxoro, Kattaqoʻrgʻon, Rishton, Shaxrisabz, Nurota, Margʻilon, Gʻajduvon, Urgut, Xoʻjayli kabi shaharlarning sanʼatida yaqqol koʻrish mumkin.

Milliy sanʼatimiz bizning faxrimiz, uni biz keng oʻrganishimiz tabiiy. Lekin jahonda hamma xalqlar tomonidan tan olingan umuminsoniy badiiy qadriyatlar ham bor. Ularni oʻquvchilarga oʻrgatmasdan turib, xalqimiz jahon madaniyatidagi oʻz oʻrnini topa olmaydi. Aks holda oʻquvchilarimiz milliy qobiqqa oʻralashib qolib, jahon durdonalaridan bahramand boʻla olmaydilar.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, koʻp asrlik milliy-badiiy madaniyatimizni (tasviriy sanʼat, bezakli amaliy sanʼat, meʼmorchilik sanʼati) va shu bilan birga

o'quvchilarning tasviriy va amaliy san'atdan o'zlashtirishi lozim bo'lgan malakalar ham hisobga olinishi lozim.

Mazkur standartda Respublika o'quvchilari o'zlashtirishlari lozim bo'lgan minimal bilim va malakalar bayon etilgan. Bu asosida O'zbekistonning barcha viloyatlari, Qoraqolpog'iston xalq ta'limi vazirligi va Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi tasviriy san'atdan o'zlaridagi o'ziga xoslikni hisobga olib, ta'lim mazmunini ishlab chiqadilar. Bu ta'lim mazmunida har bir xududning san'ati va madaniyati, uning badiiy an'analarini o'z ifodasini topadi.

Jahonning ilg'or san'atini o'quv rejalarida berilgan haftasiga bir soatlik tasviriy san'at darslarida yetarli darajada o'zlashtirishga imkon yo'q. Shunday ekan, o'quv rejalarida tasviriy san'at o'quv fanining salmog'ini oshirish va uni har bir sinfda kamida 2 soatdan o'qitilishini ta'minlash zarur bo'ladi.

Respublikaning akademik litsey va kasb - hunar kollejlarida o'qitiladigan bu yo'nalishdagi o'quv fani "Tasviriy va amaliy san'at", "Tasviriy va me'morchilik san'ati", "Tasviriy san'at va badiiy mehnat", "San'at" bo'lishi mumkin.

Yuqorida nomlari qayd qilingan har bir o'quv fani bo'yicha ta'lim mazmuni o'quvchilarning kuchiga (bo'sh, o'rta, yuqori) shuningdek, qishloq va shahar maktablariga moslab tabaqalashtiriladi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida tasviriy san'at mashg'ulotlari o'quvchilarda badiiy va estetik madaniyatini shakllantirishni maqsad qilib qo'yar ekan, u quyidagi faoliyat turlari asosida amalga oshiriladi :

Qalamtasvir.

Rangtasvir,

Kompozitsiya,

Amaliy san'at,

Haykaltaroshlik,

San'at tarixi,

Qurish-yasash. (qog'oz plastikasi)

Borliqni idrok etish mashg'ulotlarida o'quvchilarga ularni o'rab olgan tabiat-o'simliklar, gullar, daraxtlar, hashoratlar, qushlar, baliqlar, hayvonlar v.b.

turmushda qoʻllaniladigan buyumlar va xalq amaliy sanʼati naʼmunalari, kiyim-kechaklar, binolar va meʼmorchilik obidalari, mehnat qurollari va transport vositalari, xalqimizning turmush tarzi, mehnat jarayonlari, yil fasllaridagi oʻzgarishlarni kuzatish va ularni bilib olishni nazarda tutadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, hayotni va borlikni bilmasdan turib, toʻlaqonli badiiy ijodni amalga oshirib boʻlmaydi.

Kompozitsiya n tasviriy sanʼat oʻquv fanining eng yirik va muhim qismlardan hisoblanib, bu boʻlimning asosiy vazifalari oʻquvchilarda ijodiy tafakkur, fantaziya, koʻz xotirasi, badiiy did kabi psixologik jarayonlarni rivojlantirishga qaratilgan. Bunday faoliyat orqali faqat badiiy ijod vazifalarini hal qilinib qolmay, balki yoshlarni axloqiy sifatleri, xususan milliy gʻurur va vatanparvarlik tuygʻulari rivojlanadi.

Rangshunoslik boʻlimi ranglarning kishi hayotidagi roli toʻgʻrisida, ayniqsa tabiatda ranglar, rangning xalq isteʼmoli mollari va texnika buyumlarini ishlab chiqarishdagi roli, rangning tasviriy va dekorativ-amaliy sanʼat, meʼmorchilikdagi ahamiyati haqida ayrim nazariy maʼlumotlarni beradi. Bunday tushunchalar va tasavvurlar rangshunoslik boʻyicha mustaqil mashgʻulotlar jarayonida ham, naturaga qarab tasvirlash boʻyicha mashgʻulotlarda ham, tevarak-atrof, voqealar va sanʼatni idrok etishda ham, kompozitsiya faoliyatida ham berib boriladi.

Mazkur taʼlim standarti turlicha badiiy materiallar va tasvirlash vositalaridan foydalanishga jiddiy eʼtibor berishni ham nazarda tutiladi. Bunday badiiy materiallar qatorida qalam, sous, pastel, sangina, koʻmir, akvarel, tush, loy, plastilin, rangli qogʻozlar, tabiiy materiallar, oyna, tosh va gazlama parchalari va hokozolar kiradi. Tasvirlash texnikasi esa shtrixovka, hoʻl va quruq qogʻozlarda ishlash, xomaki ishlar /qoralama, ranglama/, gravyura, mozika, applikatsiya, kollaj kabilardan iborat.

"Tasviriy sanʼatni oʻqitish metodikasi"ni oʻrganish jarayonida oʻquvchilarga qoʻyilgan minimal talablar qoʻyiladi.

1.1. Tasviriyl san'at o'qitish metodikasining didaktik asoslari.

Maktablarda ta'lim-tarbiya ishlarini samarali bo'lish mashg'ulotlarning to'g'ri mazmunli va izchil olib borishga bog'liq.

Ta'limning tarbiyalovchilik xususiyatini ta'lim mazmuni bilan, ta'lim metodlari bilan amalga oshiriladi. Har bir fan o'qituvchisi kabi san'at o'qituvchisi ham pedagogika nazariyasi va uning prinsiplarini mukammal o'rganishlarini talab qiladi.

Didaktika n pedagogika ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rganiladigan qismidir. Didaktika grekcha so'z bo'lib, sabok bo'ladigan so'zdir, ya'ni didaktika n ta'lim nazariyasi demakdir.

Didaktika xususiy metodikalar bilan mustahkam bog'langan holda, barcha o'quv fanlari uchun qonun va qoidalarini belgilab beradi.

Umumiy didaktika asosida ba'zi o'quv predmetlari bo'yicha xususiy didaktikalar kelib chiqadi. Ular metodika deb ataladi. Tasviriyl san'atni o'qitish metodikasi, matematika, adabiyot metodikalari va tasviriyl san'at fani asoslarini o'rganishda quyidagi pedagogikaning nazariyl uning prinsplari katta ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim-tarbiyaning birligi.

Ta'limning ilmiylik prinsipi.

Ta'limda ko'rsatmalik prinsiplari.

Ta'limda onglilik va aktivlik prinsiplari.

Ta'lim protsessida o'quvchilarni yosh individual xususiyatlarini hisobga olish.

Tasviriyl san'atning boshqa fan materiallari bilan bog'dikligi.

Ta'lim prinspi tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonining xarakteri, yo'nalishi, o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarni o'zlashtirishning, tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilishning qonun va qoidalarini o'z ichiga oladi. Bizning davrimizda maktab ta'lim sistemasida onglilik va aktivlik prinsiplari muhim ahamiyatga ega. Hozirgi maktab ta'dimi o'quvchilarining ongli, mustaqil, aktiv faoliyatiga suyanadi.

Ta'limda onglilik o'quvchilarning ilmiy bilimlarini asosli ravishda chuqur va

anglab oʻzlashtirishlari, nazariy bilimlarni amalda qoʻllay olishlarini oʻz ichiga oladi.

Maktablarda oʻquvchilarga beriladigan bilimlar hozirgi zamon bilimlar darajasida boʻlish, oʻquvchilarga ularni muayyan sistemada boʻlishni taʼmin etishi lozim.

Oʻqituvchining vazifasi obʼektiv jihatdan narsa va xodisalar tasvirini ifodalashda realistik sanʼatining mohiyatini ilmiy ravishda ochib bera olishi kerak.

Maktabda tasviriy sanʼat dars predmeti boshqa fanlar qatori oʻzining mustaqilligiga ega. Shuning uchun tasviriy sanʼat predmeti bir qator ilmiy asoslarga yondoshiladi.

Taʼlim-tarbiyaning birligi, prinsipi.

Maktab sharoitida ilgʻor oʻqituvchi boʻlish uchun hozirgi zamon didaktik prinsiplarini egallab uni ijodiy ravishda amaliyotda qoʻllay bilish maqsadga muvofiq.

Hozirgi pedagogika taʼlim-tarbiyaning mohiyatini, didaktik prinsiplarini ochib beradi, shuning uchun birinchi oʻrinda siyosiy gʻoyaning maqsadga yoʻnalishi va taʼlim-tarbiyaning birligidadir.

Umumtaʼlim maktabning vazifasi yosh avlodni tetik ruhda tarbiyalab, ularning dunyoqarashlarini maʼnaviy shakllantirishdadir.

Tasviriy sanʼat oʻqituvchisining vazifalari taʼlim-tarbiyada yaratilgan prinsipni tasviriy sanʼat asarlar gʻoyaviy-siyosiy yoʻnalishini koʻrsatishdadir.

Oʻqituvchilarda taʼlim-tarbiya berish taʼlimotlari hamda davlatimizning koʻrsatmalari asosida yosh avlodni har tomonlama kamolatga yetgan maʼlumotli va zamon talabga javob beradigan, yuksak darajadagi fazilatlarni oʻzida moʻjlashtirgan kishilar qilib tarbiyalashdir.

Oʻquvchilarga tasviriy sanʼat boʻyicha taʼsir koʻrsatish kuchidan foydalanishda, tasviriy sanʼat oʻqituvchisi keng imkoniyatga ega.

Yosh oʻquvchilariga tasviriy sanʼatni targʻib etishimizda, uning maqsad va vazifalarini, jamiyatimizning qurilishdagi ahamiyati, sanʼatning haqqoniyligi va xalqchilligi, sanʼatning realistik prinsiplari asosida yaratilishini ochib berishimiz

lozim.

Tasviriy san'at o'zining yorqin obrazi bilan bolalar hayotida, haqqoniyligi, go'zallik vosi tasida, asarda tasvirlangan badiiy obrazlarda hayotni real ochib beradi.

U insonga emotsional ta'osir ko'rsatib, o'quvchilar sezgisini o'stiradi, badiiy didini shakllantiradi. Ana shunday sifatlarga qarab, tasviriy san'at o'qituvchisi tarbiyaviy maqsadlarni ko'zlab undan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

San'atning insonga ta'osir qilish kuchiga suyanib, o'qituvchi bolalar bilan har tomonlamatarbiyaviy ishlarni olib borishi mumkin.

Bolalarni san'at bilan yaqinlashtirar ekanmiz, avvalo biz ularga san'atning maqsad va vazifalarini ochib berishimiz kerak va asosan realistik san'at prinsplari, xalqchillik va uning prinspi, jamiyat qurilishida tasviriy san'atning ahamiyatini tushuntirib berishimiz kerak.

Hayotni adabiy obrazlarda aks ettira turib, unga estetik baho berib, tasviriy san'at hayotda go'zallikni ko'ra bilish uchun kuchli quroldir. U kechagi haqiqatni bildiribgina qolmay, balki ertangi hayotni ham to'g'ri ifoda etadi.

Agar o'quvchilarning o'zida ijodiy qiziqish katta bo'lsa, uz fikr muloxazlarini, xissiyotlarini ifoda eta olishsa atrofdagi har bir narsaga estetik jihatdan qaray bilishsa estetik g'oyaviy tarbiya juda muvaffiqiyatli keladi.

Estetik tarbiya bilan shug'ullana turib, bo'dajak o'qituvchi, maktab o'quvchilarining san'atni to'g'ri tushunib kamolatga erishayotganini yaxshi bilishi kerak.

Tasviriy san'at o'qitish bolalarga atrof-muhitni tushuna bilishlari go'zallikni ko'ra olishda yordam beradi.

Ilmiylik prinsiplari.

O'quvchilarning dunyoqarashlarining tarkib toptirish va ularni amaliy faoliyatga tayyorlashda ilmiylik prinsipi asos hisoblanadi.

Buning asosiy negizi ob'ektiv qonuniyatdan iborat bo'lib fan asoslarini chuqur o'zlashtirmay turib, o'quvchilarda dunyoqarashni vujudga keltira olmaydi.

Ilmiylik prinsipi maktab ta'dimi mundarijasiga fan tomonidan aniq berilgan

o'quv materiali kiritilishini /bu talab maktab programmalarini va darsliklari tuzish vaqtida shuningdek o'qituvchi har bir dars uchun material tanlayotganda hisobga olinadi/ hamda o'quvchilarning yoshi uchun munosib bo'lgan ilmiy tushunchalar va terminlar bilan qurollantirishni taqozo qiladi. Programmalarida va darsliklarda terminologiyani egallashdagi tartib va izchilik belgilanadi.

Bu tartibga qat'iy rioya qilish hamda o'quv jarayonida qabul qilingan terminlarnigina joriy etish muhimdir.

Ilmiy nazariyalar bilan tanishtirish talabi ko'proq darajada o'rta va yuqori sinflarga taaluqlidir, ammo boshlang'ich maktabda ham o'qituvchi darslar mundarijasiga ilmiy bilimlar joriy etib, bu ishga muayyan xissa qo'shadi. O'quvchilarga rus tili grammatikasi, tasviriy san'at, tabiatshunoslikdan ba'zi ilmiy tushunchalar beriladi.

Ilmiylik prinsipi boshlang'ich maktab o'quvchisidan maktab o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqiga alohida e'tibor berishini talab qiladi. O'qituvchi bolalarning ayrim masalalarini ilmiy asosida tushunishda hech qanday chetga chiqishlariga yo'l qo'ya olmaydi, hamda ilmiy tushunchalar va terminlarni to'g'ri ishlata bilishga o'rgatadi.

O'z predmetini yaxshilab o'rgangan, bolalarning psixologiyasini ta'dim va tarbiya nazariyasini biladigan o'qituvchigina o'qitishning dastlabki yillaridanoq o'quvchilarni ilmiy bilimlar dunyosiga olib kira oladi, ularda bilimlarni, fanni egallashga zo'r intilish uyg'ota oladi.

Tasviriy san'at o'qituvchisining vazifasi, o'quvchilarga tekislikda predmetlarni tasvirlash qonunlarini va tevarak-atrofda tutgan o'rni xakida tushuncha berish, o'quvchilar asosiy prinsplar bo'yicha fikrlashlari, realistik san'atga ob'ektiv qarashlari va narsa va hodisalarga xaqoniy tasvirlashlariga yordam berishlari kerak.

Tasviriy san'at ta'dimining o'qitilishida o'qituvchi turli shakllari tuzilishini konstruktiv jihatdan uning tabiatdagi go'zalligini ochib berib o'quvchilarning estetik didlarini rivojlantirish lozim.

Rasm ta'dimining ilmiylik prinsplari asosida perespektiva, yorug'o soyalar va

ularning qonunlari, anatomiya va boshqalar yotadi.

Masalan: rasm taʼlimida perspektiva qonunlari qurilishlarini oʻquvchilarga tushuntirib va ularning perespektiva xaqidaaniq tushunchaga ega boʻlib, uni amalda qoʻllay olishga erishmoq kerak.

Predmetlarni konstruktiv qurilishini oʻquvchilarga albatta taxlil etib berish lozim.

Rasm individual boʻlishi mumkin, u holda ham hamma oʻquvchilarni ishlari tekislikda perespektiv qonunlar asosida qurilish lozim.

Shunday qilib, badiiy jarayonda ham ilmiylik prinseplari zarurdir.

Oʻqitish jarayonida maktab oʻquvchilari real hayotni toʻldaroq aks ettiradigan, fan tomonidan aniq belgilangan bilimlar sistemasini yaxshi oʻzlashtirishlari lozim boʻladi.

Pedagogning masalasi qonunlarini, yaʼni ularni tekislikda shunday ifodalash lozimki, oʻquvchilar chizayotib realistik sanʼat metodlari haqida fikr yuritishga odatlanishi shart.

Rasm chizishning asoslari perespektiva, rangshunoslik, soyalar nazariyasi kabi fanlar moʻjassamlangan. Perespektiv rasm chizishga oʻrgata turib, bolalar diqqatini perspektiva qoidalariga rioya qilishga jalb etamiz. oʻquvchilar bu darslarda buyumning konstruktiv formasini aniq toʻgʻri chiqarishga odatlanadilar.

Rasm chizishning texnikasi har xil boʻlishi mumkin, lekin tuzish qoida va qonunlari oʻzgarmaydi.

Sanʼatda materialistik va idealistik nuqtai nazar qanday aks etishi haqida alohida toʻxtab oʻtishimiz kerak. Realistik sanʼat bu haqiqatdagi bor narsani real ijodiy ifodalashdir. Rassomning tabiatdaga boʻlgan munosabatning bahosidir.

Formalistik sanʼat-rassom turli xodisalarni yuzaki ifodalashdir. Formalistik rassomning asarida realizmdan yiroq suböektiv hayot muhimdir.

Real haqiqat rassom realistikasining dastlabki momentidir. Realistik sanʼat oböektiv dunyoni birinchi oʻrinda koʻrdi, shu bilan birga materiya birlamchiligini va ongning ikkilamchiligini koʻrsatdi.

Naturaga qarab rasm chiza turib, biz faqat buyumni tekshiribgina qolmay,

uning ichki strukturasini ham bilishga qiziqamiz.

Buyumning tashqi koʻrinishi uning ichki tuzilishidan aniqlanadi.

Masalan, skelet koʻzga koʻrinmaydi, lekin tashqi formani toʻgʻri chizishimiz uchun juda muhimdir, shunday qilib, chiza turib odam dunyoni oʻrganadi, uni analiz qiladi. Real haqiqatni idrok etish jarayonida ilm va sanʼatning asosidir.

Rasm chizishni oʻqitishning ilmiylik prinsipi realistik sanʼat metodlarini egallashdagina emas, kuzatish va qiziquvchanlikni rivojlantirishda ham ahamiyati katta.

Tashqi muhit bilan tanishishda uning qonunlarini oʻrgana bilishda oʻquvchilarni aktiv boʻlishga oʻrgatadi. Har bir pedagogga maʼlumki, bolalarni oʻylamay naturadan koʻchirma qilishdan saqlash qiyin. Oʻylamay chizishdan saqlay olish usullaridan biri: tadqiqot qilish harakteriga ega boʻlgan masalani oʻrtaga qoʻyishdir.

Akademik litsey, kasb-hunar kolleji ishlarida ilgʻor oʻqituvchi boʻlish uchun hozirgi zamon didaktikasini egallashi va uni ijodiy ravishda amalda qoʻlday bilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki taʼlim va tarbiyaning mohiyatini quyidagi didaktik sistemadagi prinsplar ochib beradi. Taʼlim-tarbiyada oʻquvchi yoshlarga taʼlim-tarbiya berishda mutaxassislikning maqsadga intilish, yosh avlodni mustaqillik taʼlimotlari koʻrsatmalari asosida har tomonlama maʼlumotli oʻzligini anglashlik, xisssiyotlarini oʻzida mujassamlashtirgan kishilar qilib tarbiyalash. Shuning uchun avvalo, tarbiya ishlarida oʻzlikni anglash gʻoyaviylikda alohida eʼtibor berib kelinmoqda. Oʻquvchilar yoshlarga tasviriy sanʼat boʻyicha taʼsir kuchidan foydalanishda, tasviriy sanʼat oʻqituvchisi keng imkoniyatga ega. Biz oʻquvchi yoshlarga tasviriy sanʼatni targʻibot etishimizda uning maqsad va vazifalaridagi katta ahamiyatga ega boʻlgan sanʼatning realistik prinsipi asosida yaratilishini ochib berishimiz kerak. Sanʼat asarlari oʻquvchilarga xayajonli taʼsir koʻrsatib, inson sezgisini oʻstiradi fikrini shakllantiradi. Ana shunday xislatlarga koʻra tasviriy sanʼat oʻqituvchisi tarbiyaviy maqsadlarni koʻzlab, undan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Hammamizga maʼlumki, faoliyatimizda ilmiylik prinsipi eng muhim

oʻrinlardan biri hisoblanadi. Chunki oʻquvchi, yoshlarga beriladigan barcha bilimlar ilmiy asoslangan boʻlib, u amaliyot bilan chambarchas bogʻlangan xulosadan iboratdir.

Tasviriy sanʼat oʻqituvchisining vazifasi oʻquvchi, yoshlarga tekislikda narsalarni boʻyoq bilan tasvirlash qonunlarini va ularni tevarak-atrofdagi tutgan oʻrinini oʻquvchi yoshlarga ularni real tasvirlay olishlariga yordam berishi kerak. Oʻqituvchi oʻquvchi, yoshlar oldida ketma-ketlik topshiriqlar sistemasini qoʻyib, rasm taʼlimining asosiy tuzilish qonunlarini tavsiya etmogʻi lozim.

Tasviriy sanʼat darslarini oʻqitishda rassom-oʻqituvchi, turli shakllarni tuzilishi konstruktiv jihatdan tabiatning goʻzalligini ochib berib, oʻquvchilarda estetik didlarini rivojlantirishi kerak.

Tasviriy sanʼat taʼlimida koʻrgazmalilik prinsipi .

Asosan oʻquvchi yoshlar koʻrgazmalilik prinsiplarida vosita yordamida aniq tushunchalarga ega boʻlib boradilar. Predmetga qarab, uni tuzilishi xislatlarini aniq koʻradilar. Naturaga qarab rasm ishlashning oʻzi ham koʻrgazmalilikdir. Naturadan rasm ishlash davomida shaklni kuzatishda his-tuygʻular, farqlashlar yuzaga keladi. Ana shuning uchun ham oʻquv jarayonida naturadan foydalaniladi. Pedagogikaning vazifasi oʻquvchi, yoshlarga diqqat-eʼtiborni bir joyga jamlashni oʻrganish, ishga mustaqqil ravishda yondoshtshga oʻrgatish. Shuning uchun pedagog har bir natura postanovkasini jiddiy ravishda oʻylab koʻrishi kerak. Naturani kuzatishda koʻrsatmaliliklardan ham foydalanib boriladi. Bunda karton va boshqa materiallardan foydalaniladi. Koʻrgazma ham metodik tomondan oʻquvchi, yoshlarga tushunarli boʻlishi kerak. Masalan, talabalarga geometrik jismlarni ishlayotganilarida uning konstruktiv tuzilishiga, sxemalarni koʻrsatish va uni chizish, koʻrgazmalardan foydalanish juda oʻrinlidir. Bu holda oʻquvchi, yoshlar tez fikrlab naturani chizish yoʻllarini oʻrganib oladilar.

Taʼlim sistemasida koʻrgazmalilik prinsipi juda muhim ahamiyatga ega. Pedagogika klassiklari taʼlimning koʻrgazmali boʻlishiga oid qimmatli fikrlar berganlar. Buyuk pedagog Yan Amas Komenskiy, Pestolitssi, ayniqsa ulugʻ rus pedagogi K.D.Ushinskiyning taʼlimini koʻrgazmali boʻlishi haqida aytganlari

muhim ahamiyatga ega va u hozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qatmagan.

Hozirgi pedagogika tarixiy pedagogik nazariyalariga tanqidiy yondoshib tajribalar va yutuqlarga asoslangan holda ko'rgazmalilikning ilmiy asoslarini ishlab chiqadi va uni amalda qo'llanishning yo'l-yo'riqlarini belgilab berdi.

Ta'limning ko'rgazmalilik prinsipi boshqa didaktik prinsiplardan ajratgan holda talqin qilib bo'lmaydi. U didaktikaning boshqa prinsiplari, ayniqsa ta'limda onglilik va aktivlik, mustahkam va puxta o'zlashtirish kabi prinsiplar bilan mustahkam bog'liqdir.

Talimning ko'rsatmalilik prinsipi o'quv materialini konkret obrazlar orqali bevosita o'quvchilarning idrok qilishlarini ta'minlashga qaratilgan prinsip bo'lishi bilan xarakterlanadi.

"Bu /ko'rgazmalilik/ shunday ta'limki,- u mavhum tasavvur va so'zlarga emas, balki bolalar bevosita idrok qilgan konkret obrazlarga asoslanadi. Bu obrazlarni bolalar o'qituvchilarining rahbarligi ostida o'tish protsessining o'zida bilib olishganmi, ilgari mustaqil kuzatish natijasida bilib olganmi, bari bir" !

Ko'rgazmalilik prinsipi o'quvchilarni ishonarli bilimlar bilan qurollash idrok eta bilish manbai bo'lgan buyumlarning o'ziga murojot etishdan iboratdir.

Naturaga qarab rasm chizishning o'zi ko'rgazmali o'qitish metodidir. Naturaga qarab rasm chizish protsessi buyumni ko'ra bilish, xis qilish, kuzatishdan boshlanadi.

Ko'rgazmalilik naturani kuzatish va uni analizini to'g'ri talqin qilinishi bilan bevosita bog'liqdir. Bu buyumni va xodisalarni yaxshi tushunishda ta'osir qiladi, shu bilan birga, tasvirni qog'oz sathida to'g'ri ifodalashdagi sifatini ham yaxshilaydi.

Fizika va geometriya o'qituvchisi tajriba bilan o'z fanini tushuntirishga tirishganidek tasviriy san'at o'qituvchisi ham xuddi shunday modellarining formasini ko'rsatish kerak. Ko'rsatmalilikning hamma xillari o'quvchiga formaning strukturasini nimadan iboratligini to'g'ri ko'rishga, tushunishga yordam beradi.

Maktab ta'limida o'quvchilarining o'quvchi materiallarini fakt, narsa, xodisa

va voqealarning konkret obrazini idrok qilish, sezish orqali roʻy beradi. Ayni bir vaqtda koʻrgazmali materiallar sezish obʼekti boʻlib xizmat qiladi.

Binobarin, koʻrsatmalilik orqali idrok qilish murakkab psixik protsessdir. U /koʻrish, eshitish, hid bilish, taʼm-maza bilish, mustaqil harakat va boshqalar/ sezgi organlarining alohida-alohida va bir yoʻlda bir obʼektiv ustida bir necha sezgi organlarini safarbar qilishni talab qiladi.

Kuzatilayotgan obʼektning xarakteri yoki oʻquv materialining xususiyatiga qarab idrok qilish turlicha boʻlishi mumkin: hayotdagi narsa, xodisa va voqealarni yoki oʻquv materiallarini toʻgʻridan toʻgʻri kuzatish orqali bevosita idrok qilish, ilgari sezilgan va idrok qilingan narsalar va oʻquv materiallarining obrazlarini qaytadan esga tushurish, tasavvur qilish.

Narsa, xodisa va voqealar yoki oʻquv materiallarining tasviri ifodalangan koʻrgazma materiallarini namoyish qilish yoʻli bilan idrok qilish. Taʼlimda qoʻllanilayotgan koʻrgazma qurollar oʻquvchilarning qanchalik yaqqol va konkret obrazli idrok etishni taʼminlasa va kuzatilayotgan obʼektga mumkin qadar koʻproq sezgi organlari safarbar qilinsa, oʻquv materiallari shunchalik tez, qulay va oson oʻzlashtiriladi. Bu esa oʻquv materiallarini puxta oʻzlashtirishni taʼminlaydi.

Koʻrgazma materiallar orqali oʻquvchilar obʼektiv borliqdagi narsa, xodisalar va voqealar bilan, ularning xususiyati, belgilari va bir-biri bilan bogʻlanish vositalari bilan tanishadilar.

Mavxumiy xodisalarning konkret obrazlar orqali idrok qilish natijasida oʻquvchilarning mantiqiy fikr qilish faoliyatlari rivojlanadi. Ayniqsa, biror oʻquv material xususiyatlarini mustaqil fikr yuritish / taqqoslash, analiz qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarish / orqali aniqlab, tushunib, oʻzlashtirishlariga qaratilgan sxema, tablitsa, diagramma kabi materiallar ustida ishlash muhimdir.

Koʻrgazmalilikni yuqoridagicha tashkil qilish oʻquv materialini ongli, mustaqil va aktivlik bilan oʻzlashtirishni taʼminlaydi.

Koʻrgazmalilikning samarali natijalar berishi uchun uning boshqa tomonlari xam nazarda tutilish lozim. Birinchidan, ishlatiladigan koʻrgazmali qurollar har bir sinf oʻquvchilarining saviyasi, yosh va umumiy harakter xususiyatlariga mos

keladigan boʻlishi lozim.

Ikkinchidan, foydalaniladigan koʻrgazma qurollar oʻtilayotgan dars temasining harakter xususiyatlariga mos keladigan temaning mazmunini ochib berishga yordam beradigan boʻlishi kerak. Darslarda koʻrsatma materialdan ortiqcha foydalanish tavsiya etilmaydi. Koʻrgazmali qurollar koʻpayib ketgan paytda taassurotlarining koʻpayishi, fikrda qayta ishlashni qiyinlashtiradi, hamda oʻquvchilar bilimlarining sifatiga putur yetkazadi.

Inson bilish faoliyatida xissiy obraz qanday rol oʻynashini atroflicha tushunishga, aniq fikrlashdan abstrakt fikrlashga, xissiy obrazga oʻtishini anglashga imkon beradi.

Oʻquvchilarning rivojlanishidagi aniq obrazli bilan mustaqil jarayon ham, abstrakt fikrlarining shakllanish vositasi ham boʻlishi mumkin.

Taʼlimning koʻrgazmaliligi termini bolaning rivojlanishidagi xissiy bilish boyligi va uning ahamiyatini ifodalay olmaydi. Koʻrsatmali oʻquv qurollari oʻquvchining xissiy bilishini tashkil kilish tomonlaridan biridir. Ular oʻquvchining bilish faolitiyadagi xissiy va aqliy bilishning oʻzaro murakkab dialektik ziddiyatli bogʻlanish momenti, xolos.

Shaxsni garmonik ravishda rivojlantirish, oʻquvchilarining aqlini oʻstirishning murakkab vazifalari oʻqituvchidan bolaning xissiy bilishini moxirona yoʻlga quyishni talab qiladi.

Oʻqitish protsessidagi bilish faoliyatini shu asosida boshqarish oʻquvchilarning aqlini oʻstirish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Koʻrgazmalilik prinsepi oʻqitish maqsadlariga mos boʻlib, materialining mazmuni bilan belgilanadi. Bu materialni oʻrganish esa oʻquvchilarni chinakam ilmiy va hayotiy muhim bilimlar bilan qurollantirishga undaydi. Koʻrsatmalik bu bilimlarni yaxshiroq oʻzlashtirib olishga hamda ularning hayot bilan, mehnat praktikasi bilan bogʻlanishiga yordam beradi. Mashgʻulotlarda turli xil koʻrgazmali qurollarni qoʻllash oʻquvchilarning fikrlash faoliyatini aktivlashtiradi, ularning diqqatini safarbar etadi. Shuning uchun koʻrgazmalilik vositalari oʻqitishning hamma bosqichlarida oʻquvchilarining yangi materialini idrok

qilishlarida, bilimlarni mustahkamlashda, tekshirish hamda amaliy faoliyatda va ishda qoʻllanishda, mehnat koʻnikmalari va malakalarini hosil qilishda tatbiq etiladi.

Taʼlim protsessida koʻrgazmalilikdan foydalanishda bir qator metodik talabalarga rioya qilish kerak.

Birinchidan, koʻrgazmali qurollarning u yoki bu xilini tanlash darsning maqsadini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Ikkinchidan, koʻrgazmali qurollar bilan ishlaganda oʻqituvchi oʻquvchilarning bu qurollarini idrok etishga raxbarlik qilishlari, ularning diqqat eʼtiborini oʻrganilayotgan buyumning asosiy va muhim tomonlariga qaratishlari, oʻquvchilarning mumkin qadar koʻproq aktiv va mustaqil ravishda ishlashlari uchun sharoit yaratishlari kerak.

Uchinchidan, darsni koʻrsatmali qurollar bilan toʻldirib yubormaslik, ulardan taʼlim maqsadlariga erishish uchun zarur boʻlgan miqdorda foydalanish lozim. Agar darsda bir necha koʻrgazmali qurolni koʻrsatishga toʻgʻri kelsa, ularning hammasini birdaniga emas, balki ehtiyojga qarab koʻrsatish kerak. Koʻrgazmalilik prinspidan yana biri, u ham boʻlsa oʻqituvchini chizgan rasmlari. Birinchidan, oʻqituvchi oʻzi chizib koʻrsatgan rasmlarida kerakli boʻlgan rasm texnika oʻquv materiallaridan qanday foydalanish kerakligini haqida tushuntiradi.

Bu borada oʻqituvchining sinf doskada boʻr /mel/ bilan chizgan rasmlari alohida oʻrin egallaydi. Sinf doskasida rasm chizishni oʻziga xos xususiyati boʻlib buni tushuntirayotgan materialni tez va sodda qilib 2-3 minut ichida sxematik ravishda chizib koʻrsatish maqsadga muvofiq. Ayrim oʻqituvchilar sinf doskasida chizayogan rasmlarga 10-15 minut sarflashadi, shu bilan birga ular oʻquvchilarni vaqtlarini oladilar.

Ikkinchidan, oʻqituvchi oʻquvchilarning rasm daftarlarini chetiga chizib koʻrsatishi. Bunda biz oʻquvchilarni ishga nazar tashlab koʻpchilikni fikrini chalgʻitmasdan ayrim oʻquvchilarni ishini koʻrib chiqamiz va tuzatish kiritamiz.

Sim va boshqa narsalardan ishlangan karkasli modellar konstruktiv jihatdan ishlangan va boʻyalgan qogʻozli koʻrsatmalar;

Yorugʻo va soya, perespektiva qoidalarini asoslab ishlangan maxsus koʻrgazmalar;

Turli shakllarning qonunlashtirilgan sxematik tasvirlari;

Metodik jihatdan ishlangan ketma-ketlik tartibi;

Tasviriy sanʼat namoyondalarining rasm va reproduksiyalari;

Oʻqituvchining koʻrsatmasi, qogʻoz va sinf taxtasi kabilar.

Bularning hammasi oʻquvchi, yoshlarga naturani koʻrish va uni chizish yoʻllarini oʻrganishga yaqindan yordam beradi. Ya.A.Komenskiy n "koʻrgazmalilik prinspi n didaktikaning oltin qoidasi", - deb bejiz aytmagan.

Chunki koʻrsatmali qurol oʻz xolicha qolib ketmasligi uni soʻz bilan isbotlashni takoz etadi.

Tasviriy sanʼat predmetlaridan qoʻllaniladigan koʻrgazmali qurollarni quyidagicha guruxlariga ajratishi va ularning taʼlim tarbiyadagi maqsadlariga toʻxtalsak:

a) Naturaga qarab rasm ishlash darslarga bogʻlik boʻlgan koʻrgazmalar /yassi predmetlar, daftar, kitob, bayroqchalar/ hajmga ega boʻlgan predmetlar, meva va sabzavot mahsuloti, geometrik jismlar, maktab va oʻquv qurollari, uy va roʻxgʻor buyumlari, odam, qush va hayvon turlari va boshqalar;

b) narsa, predmetlarni konstruktiv kurilishlari jihatdan hamda perespektiv va rang qoidalari asosida ishlangan koʻrgazmali qurollar;

v) tablitsa va sxemalar. Perespektiva qoida va qonunlarini tushuntirish uchun ishlangan poezd yoʻli, katta koʻchalar, metro ichi va boshqalarga qarab, metodik tomondan ishlangan chiziqli yoki rangli koʻrgazmlar;

g) kartina reproduksiyalari.

Oʻquvchi haykaltaroshlik; grafika, rangli tasvirlangan asarlarni yaratgan taniqli rassomlar haqida maʼlumotlardan foydalanish zarur.

d) pedagogning chizma rasmlari.

Sinf taxtasida oʻqituvchi tomonidan qoʻyilgan natura predmetlarni kompozitsiya perespektiva tomonidan sinf taxtasi yoki varaqda xomaki rasmlarni chizib koʻrsatish mumkin. Bundan tashqari turli rangli qogʻozlarga chizib koʻrsatish mumkin. Shuning uchun oʻquvchilar naturadan koʻra bilishlari, natura

detallarini taxlil eta bilib, naturani obrazli qonun qoidalar asosida ishlay bilishlari, boʻyashda umumiydan detallashtirishga va yana umumiyga oʻtish kabilarni talabalar amalda qoʻllay bilishlari maqsadg muvofiq qilib qoʻyadi. Bosqichli koʻrsatmalar qalam va akvarellardan ikki predmetdan tashkil topgan ketma-ketlilik, koʻrsatma odatda 4 bosqichdan tashkil topishi mumkin. I bosqichda natyurmortni kompozitsion tuzilishi, natyurmort predmetlarini ustki oʻng va chap chetki qirralarini aniqlab qogʻoz satxiga umumiy joylashishi belgilanadi.

Zamonaviy hamda jahon andozalariga mos mutaxassislar tayyorlab oʻqitish faoliyati. II bosqichda natura predmetlarini bir-birlariga boʻlgan nisbatlari aniqlab olinadi.

III bosqichda natura predmetlarini perespektivada qisqarishlari hamda ularni konstruktiv qurilishi, har bir predmetning harakterlarini makonda koʻrsatadi. IV bosqichda ishning tamomlash jarayoni koʻrsatilib soʻngi bosqichlarda esa naturani ranglar boʻyicha ishlanganligi va boshqalar koʻrsatiladi.

Turli geometrik jismlar konus, silindr hamda toʻgʻri burchakli shakllardan tashkil topgan predmetlarda yorugʻ-soyalarni belgilash boʻyicha ishlangan holda oʻqituvchining koʻrgazmali qurollar katta ahamiyatga ega.

Odam, qush va hayvon kabi boshqa murakkab narsalarning konstruktiv qurilishlari boʻyicha ishlangan tablitsalarni oʻquvchilarga koʻrsatishi zarur hisoblanadi.

Turli tuman ishlangan koʻrgazmali qurollarni ok vatman qogʻozda bajarilishi planshetlarga qoʻyib uni oʻquvchilarga koʻrsatishda yaxshi natijalarga erishilganligi oʻqituvchilarni ish tajribalardan koʻrinib turibdi.

Tasviriy sanʼat taʼlimini oʻqitishda dars samaradorligini yanada oshirish, omillaridan biri texnika vositalaridan foydalanishdir. Bular oʻz navbatida talabalarni bilim darajasi oʻsishida katta ahamiyatga egadir.

Taʼlim onglilik va aktivlik prinsplari.

Pedagogika fanida aktivlik va onglilik asosiy pedagogikaning prinsiplaridan hisoblanadi. Onglilik aktivlilik va mustaqil ishlash hamisha oʻquv materialini yaxshi egallashga olib keladi. Bundan tashqari onglilik va aktivlilik oʻquvchilar

olgan bilimlarni chuqurroq oʻrganishda zarur boʻladi, ishga qiziqish uygʻotadi, ijodiy ishlashga chorlaydi.

Bu prinsip oʻqitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda oʻquvchilar bilimlarni hamda ularni amalda qoʻllash metodlarini ongli va aktiv egallab olishsin ijodiy tashabbuskorlik keng dunyo qarash tarkib topadigan boʻlsin. Faqat shunday oʻqitish yosh avlodni ijodiy mehnatga layoqatli jamiyat qurilishiga aktiv ishtirok etuvchi shaxsni tayorlash imkonini beradi.

Oʻqitishdagi onglilik prinsipi oʻquvchilarning oʻquv ishlarini konkret maqsadlarini aniq tushunishi, oʻrganilayotgan xodisa jarayonlarni va ular oʻrtasidagi bogʻlanishlarni tushungan holda oʻzlashtirib olishini, olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qoʻllay bilishini taqazo yetadi.

Oʻqitishdagi onglilik oʻquvchilarning oʻqishga maʼsuliyatini sezgan holda munosabatda boʻlishini, oʻquvchining topshiriqlarini oʻz vaqtida aniq, mustaqil va ijodiy ravishda bajarishga harakat qilishga ham yoʻllaydi.

Oʻquvchilarning aktivligi ularni nazariy materialni egallab olishida va tasviriylar sanʼat xonalarida hamda tabiatni kuzatish natijasida bajargan vazifalarida namoyon boʻladi. Aktivlik oʻquvchilarning oʻquv va mehnat faoliyatidagi mustaqilligini rivojlantirish bilan mustahkam bogʻlangan.

Ongliligi va aktivlik prinsiplarini amalga oshirishda oʻquvchilar oʻrganishga kirishgan fan yoki uning bilimining maqsadi hamda vazifalarini ularga ochib berishdan, kasbiy tayyorgarlik uchun uning amaliy ahamiyatini koʻrsatishdan boshlanadi.

Taʼlimning samaradorligi oʻqituvchining oʻz amaliy ishida bolalarni tasviriylar sanʼat darslarida izchil va muntazam qiziqtirib borish usullariga juda xam bogʻliqdir.

Bilimga qaratilgan jarayonlar yetarli darajada aktivlashgan va ruxiy holat aktiv boʻlgan vaqtdagina oʻquv materialini oʻzlashtirish mumkin. Ruxiy voqelikning oynaviy aksi, emas, balki aktiv ifodasidir. Ruxning faol inʼokosi tashqi omillar taʼsirida paydo boʻladi, oʻz moxiyatiga koʻra u oʻquvchi ichki holatining, oʻquvchidagi bilish kuchlari va shaxsiy hislatlarning ifodasidir.

Oʻqituvchining vazifasi oʻquvchining bilim olishiga boʻlgan intilishidan foydalanish, unda bilishga qiziqishni shakllantirish va mustahkamlashdir.

Oʻqituvchining vazifasi boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining bilim olishidagi umumiy aktivligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ularni tasviriy sanʼatga ijodiy munosabatda boʻlishiga mustaqillikka va ishchanlikka odatlantirishdir. Oʻqituvchi bolalarning aktivligini oshirish uchun kerakli savollar berishi zarur. Shu bilan birga, bolalarni sistemali mustaqil ishlashga oʻrgatish kerak. Unga beriladigan vazifa hamda darsdagi topshiriq harakterga jihatdan har xil boʻlishi mumkin, naturadan faqat qalam bilan chizish, yoki boʻlmasa akvarel guash boʻyoqlari bilan yorugʻlik va soyalar yordamida chizib, oʻquvchilar toʻgʻri boʻyash yoki shtrixovka bilan ifodalashga harakat qiladilar, har biri mustaqil va aql bilan ishlaydi.

Oʻquvchining vazifasi - oʻquvchining fikr yuritishi va rivojlantirishini qoʻllab-quvvatlab kuzatib borishdir.

Oʻquvchi faqat ogʻzaki tushuntirib, koʻrsatibgina qolmay oʻquvchilar bilan bir-birini tushunishga, qiziqtirishga intilishi kerak. Shu ikki momentning qoʻshilishi murakkab jarayon hosil qiladi. bu esa oʻqituvchidan katta tajriba talab qiladi.

Taʼlimda ongillik prinsipi, dastavval, aqliy fikr qilish faoliyatidagi aktivlikka bogʻlikdir. Tafakkur qilish borasidagi esa bayon qilinayotgan oʻquv materiallari yoki tevarak atrofni oʻrab olgan borliqdagi narsa, xodisa, voqealar ustida fikr qilishdir. Aktiv fikrlashda, yaʼni taqqoslash analiz va sintez qilish faoliyatini aktivlashtirishga qaratilgan boʻlmogʻi zarur.

Oʻqituvchi tasviriy sanʼat darslarida oʻquvchilarni darsda tmasiga faollashtirish uchun dars mavzusining mazmuni, hayotdagi ahamiyati va uni chizish qoidalarini tushuntirish zarur. Baʼzida oʻqituvchilar oʻquvchilarni faollashtirish uchun ularga dars mavzusi yuzasidan savollar berib, unga berilgan javoblarni toʻldirish kabi vositalaridan ham foydalandilar.

Oʻquvchilar dars va darsdan tashqari vaqtlarda mustaqil ravishda bajarayotgan ishlari vositasida bilimga, malaka ijodiy koʻnikmaga ega boʻladilar,

oʻqituvchining vazifasi oʻquvchilarning mustaqil ishlariga yordam berishi, ragʻbarlantirish metodi asosida yutuq va kamchiliklarini oʻz vaqtida koʻrsatish, ularni oʻz kuchlariga ishonchini musahkamlash kabi vazifa yuklanadi.

Tasviriy sanʼatdan suhbat darslarida oʻquvchilar kinofilmlarda tasviriy sanʼat namoyondalarining hayoti va ularning yaratgan asarlari bilan batafsil tanishadilar.

Bunda natura predmetlari konstruktiv jihatdan koʻrilishi, perespektiva rangshunoslik kabilarga oid koʻrgazmali qurollar bilan bir qatorda koʻrsatilishi mumkin.

Darsda texnika vositalaridan foydalanish oʻquvchilarni dars mavzusi va texnika vositalariga boʻlgan malakalarini oshirish.

Oʻquvchilarga puxta bilim berishda ularning oʻz ish joylarini tashkil etish katta ahamiyatga ega. Bunda oʻqituvchi yil davomida oʻquvchi, yoshlarni sistematik ravishda ularni darsga tayyorgarliklarini kuzatib boradi.

Talabalarning darsga tayyorgarliklarini doim kuzatib boradi. Talabalar oʻquv qurollarini doim darsga olib kelishlari oʻqtirildi.

Faollik, mustaqillik prinsipi.

Oʻqitish faolitada faollik va mustaqillik muhim oʻrinlardan hisoblanadi. Tasviriy sanʼat taʼlimda bu qonun hisoblanadi.

Tushunish borasining oʻzi ham /onglililik/, /faollik/, "mustaqillik" kabilardan tashkil topadi. Bular bir birlari bilan chambarchas bogʻlik boʻlib onglililik oʻz vaqtida oʻquvchi, yoshlardan faollikni talab qiladi, shunga koʻra koʻpchilik mutaxassislar amaliy mashgʻulotlarda faollik va mustaqillik muhim deb hisoblaydilar. Tasviriy sanʼat darslarida talabalarni dars mavzusi va uning ahamiyati, chizish yoʻllari, perespektiv qoidalari bilan tanishtirib, tushuntirib borish kerak boʻladi.

Oʻquvchi, yoshlar mustaqil ishlarda albatta bilim malakalariga ega boʻlishilari, mustakil ishlarda ularga alohida, alohida yordam berib va turli ishlarda bilim, yutuq va kamchiliklarni koʻrsatib talabalarini oʻz kuchlariga qarab bilimli qilish va olgan bilimlarini amalda qoʻllash kabilarga chorlab borish kerak va zarurdir.

Ta'limning sistematik va ketma-ketlik prinsipi

Pedagogika fani har bir narsani yangiligi bilan isbotlangan. Har bir fandagi izlanishning bilimga asoslanganligi, har bir narsaning doim oddiydan murakkabga o'tish holatini kuzatilib kelinadi. Shuning uchun o'tilgan dars mavzularini yangi dars mavzulariga bog'lab ketma-ketlikni kengaytirib uni chuqur loyihalab borish kerak.

Sistematik va ketma-ketlik prinsiplarini tuzilishi ham yangi material aniqligi bilan birga to'ldirib borilishini taqozo etadi.

Tasviriyy san'atda ta'limning sistematik prinsipi juda muhim rol o'ynaydi. Bu asosan qoidaga asoslanib hozirgi dars mavzusini o'tilgandan so'ng keyingi dars mavzusiga bog'lanadi. Chunki, yangi mavzu o'tilgan dars mavzusiga nisbatan murakkablashib boradi. O'qituvchi shunday qilishi kerakki, natija darslarini o'quvchilarga qiziqarli bo'lishi uchun naturadagi narsalarni oddiydan asta sekinlik bilan murakkablashtirib borishi lozim.

Tasviriyy san'at ta'limida voqea yoki hodisalar bilan o'quvchi, yoshlarni qiziqitirmasdan balki mashg'ulotlarni sistematik olib borilishi bilan qiziqitirish lozim.

Tasviriyy san'atni dars turlariga bo'lib o'qitiladi:

Qalamtasvir; Rangtasvir;

Kompozitsiya; Amaliy san'at

Haykaltaroshlik; San'at tarixi;

Qurish n yasash.

Bu fanlarning bir-birlari bilan bog'liq bo'lib mashg'ulotlar davomida bir-birlarini doim to'ldirib boradi. O'quvchilar esa olgan bilimlarni kengaytirib boradi.

Tasviriyy san'at asoslarini o'qitishda o'quvchilarga individual yondoshish.

Maktab xar bir individual xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladigan turli yoshdagi bolalar ta'lim oladi. O'quvchilar orasida ko'rib turgan narsalarni to'g'ri tasvirlay oladigan xotira asosida qiynalmay rasm chizadiganlar bilan bir

qatorda, oddiy rasmga qarab nusxa ko'chirishga ham qiynaladiganlar uchraydi. Bu borada biz ba'zi o'quvchilarining ko'rish qobiliyatlarining sustligi, rang sezmasligi kabi boshqa xollar hisobga olinadi.

O'quvchilarning psixik va fizologik xususiyatlarini hisobga olish, har bir o'quvchining imkoniyatiga moslashish degan so'z emas. Aksincha turli usul va metodlar yordamida bilimlarini har bir o'quvchiga yetkazish demakdir.

O'quvchilarning qobiliyat va xususiyatlariga qarab guruhlariga bo'lib ta'lim berish metodi maqsadlidir.

"Kuchli" biladigan o'quvchilarga "kuchsiz" bilimli o'quvchilarni biriktirib qo'yish ham yaxshi natijalar beradi. O'quvchilarning tasviriy faoliyatini aktivlashtirishda, ayrim o'quvchilar bilan yakka tartibda munosabatda bo'lish va unga pedagogik ta'sir o'tkazish ham katta ahamiyatga ega.

Ta'limning individuallashtirish masalasi hozirgi davrda pedagog va ruxshunos olimlar va uslubchilarni qiziqtirmoqda.

Sinfdagi bolalar haqidagi dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lgandan keyin, o'qituvchi hamma bolalarni qobiliyati va malakalariga qarab quyidagi guruxlarga bo'ladilar:

Tasviriy faoliyati yaxshi rivojlangan, kuzatuvchanligi, ijodiy tassavuri tarakkiy qilgan, rasm materiallarini o'zlashtirgan yoki tez o'zlashtira oladigan o'quvchilar.

1. O'quv materiallarini umumiy tushuntirishdan keyin mustaqil ishlash orkali o'zlashtiradigan o'quvchilar.

1. Tasavvur qilish qobiliyati, so'z va dars materialini sust o'zlashtiradigan, o'qituvchining maxsus yordamida muxtoj o'quvchilar har uchchala guruxdagi o'quvchilarga tavsiya qilinadigan topshiriqlar oldindan tayyorlanib, O'qituvchining frontal tushuntirishdan keyin hamma o'quvchilar o'z qobiliyatlariga yarasha ish bilan band bo'lishi kerak.

O'quvchilar aktivligini oshirishda o'qituvchi suxbati katta ahamiyatga ega. Suxbat har bir o'quvchining aktivligini ma'dum darajada o'stiradi. Natijada darsga aktiv qatnashadilar va xar bir savolga javob berishga intiladilar. Turli kartochka-

savollar tarqatish o'quvchilarning ijodiy xayolini rivojlanishi uchun turki bo'lib xizmat qiladi, mazmunli rasm chizishda muvaffaqiyatga erishishlariga quyidagi usullar yordam berish mumkin.

Kartochka- savollar taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin:

3. Sen temani yoritish uchun qanday mazmunda rasm chizmoqchisan?
3. Tasviringda asosiy o'rinni nima egallaydi?
1. Ayrim narsalarni rasmini to'g'ri chizdingmi? Teshkirib ko'r.
1. Birinchi plandagi narsalarni va figuralarni orqa plandagilar bilan taqqosla va boshqalar.

To'g'ri tuzilgan kartochka-savollar o'quvchilar bilimining mustahkamligini oshiradi, larning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

O'quvchilar bilan individual ishlashda rag'batlantirish usullarining roli ham katta. O'qituvchi o'quvchilarning vazifalarini tekshirayotganda faqat I va II gurux o'quvchilarning yutuqlarini na'muna sifatida ko'rsatavermay, III gurux o'quvchilarini xatm e'tibor berishi kerak. Ulardagi ozgina bo'ssada o'sish va o'zgarishni xisobga olgan holda, ularni rag'barlantirib turish shart. Masalan: bolalar qarang Karim chizgan suratga. Oldingi ishlaridan ancha tuzuk. Karim harakat qilsa, a'dlochi o'rtoqlariga tez kunda yetib olishi mumkin ekan. Bugun men unga "4" bal qo'yaman. Agar bundan ham yaxshiroq chizib qolsa, u ham o'rtoqlariga o'xshab "5" baho oladi. O'qituvchining bu so'zlari karimni albatta "5" bahoga olishga undaydi. O'quvchilarning aktivligini oshiradi.

O'quvchilar bilan individual ishlashning ahamiyati katta. Bu usul yordamida qoloqlarsiz o'qitish darajasiga yetish mumkin. Tasviriy san'at o'qitish xonalari yorug'o bo'lishi kerak. Yorug'dlik normal bo'lmagan joyda ko'rish sezgilariga zo'r berish zararlidir.

Ba'zi bir xil o'quvchilarda yaxshi eshitmaslik, uzoqdagini ko'ra olmaslik kabi kasalliklar uchraydi. Odatda bu xil o'quvchilar o'qituvchining e'tiborda bo'lishi va oldingi partalarda o'tirgani ma'qulroqdir.

Ko'z har xil uzunlikdagi yorug'dlik tulqinlarini bir xilda sezmaydi. Ko'z sariq va havo rangni sezishga moyilroq bo'ladi. Ba'zan xromatik ranglarni mutloqa

sezmaslik hollari ham uchrab turadi.

Bunday kishining koʻziga barcha buyumlar qoramtir rangga boʻyalgandek koʻrinadi. Koʻpincha ayrim ranglarni qizil va yashil rangni sezmaslik holati uchrashi mumkin, bu daltonizm deyiladi.

Daltonizm koʻrishidagi eng muhim kamchilik hisoblanadi. Bunday oʻquvchilarning kasb tanlashda oʻqituvchi alohida eʼtibor bermoʻi zarur, chunki daltonizmga uchraganlar, shofer, mashinist va uchuvchilik qila olmaydi, rassom boʻla olmaydi.

1.2. Oʻrta umumtaʼlim maktablari tasviriy sanʼat darslarida oʻquvchilarni sanʼatni idrok qilishga oʻrgatish.

Bolalarning sanʼat idrok etish bilimi tasviriy sanʼat darslarida asta - sekin kengayib boradi. Bu esa oʻquvchilarning amaliy ishlarda borliqdagi va sanʼatdagi goʻzallikni idrok etishga ongli ravishda yondoshish imkonini beradi. Darslarda tasviriy sanʼatning tur va janrlari haqida tez-tez suhbat oʻtkazish, mashhur sanʼatkor va ularning yetuk asarlarini tahlil etish bolalarning badiiy didini oʻstirishga, goʻzallikni sevish va tushunishga yordam beradi.

Tasviriy sanʼat boʻyicha suhbat oʻtkazish uchun maxsus soatlar ajratilmaydi. Suhbat darslari tasviriy sanʼat turlari tekislikni tasvirlash, plastilin bilan ishlash, dekorativ amaliy sanʼat bilan qoʻshib oʻtiladi.

Tasviriy sanʼatda suhbat uchun ajratilgan vaqt 15-20 minutdan oshmasligi lozim. Suhbat darslarining temasi har xil boʻlishi mumkin. Rassomlar, haykaltaroshlarning ijodlari, tasviriy sanʼatning tur va janrlari toʻgʻrisida suhbatlar oʻtkazilishi mumkin. Suhbatda oʻquvchilar rassomlarning hayoti va ijodini, asarlarini tahlil qilishga oʻrganadilar. Sanʼat asarlarini idrok etish boʻlimida oʻzbekiston xalqlari hayoti va ijodini aks ettiruvchi asarlarga koʻproq vaqt ajratish maqsadga muvofiqdir. Tasviriy sanʼat asarlari bilan oʻquvchilarini tanishtirishda, ularga yaqin va tevarak tarofdagi hayotdan olingan mavzu asosida oʻtkaziladi. Bular tabiat manzarasini aks ettirgan isteʼdodli oʻzbek rassomlarining, Oʻzbekiston tabiatning manzarasi, koʻkoʻpar togʻlari, keng quloch yoygan yam-yashil dalalarini, qurilish inshootlarini rang-barang yorqin boʻyoqlarda ifoda etilgan asarlari orqali tanishtirish mumkin.

Dars jarayonida oʻzbek tasviriy sanʼatini va boshqa qardosh xalqlar tasviriy sanʼati bilan taqqoslash usulini qoʻllab koʻrish maqsadga muvofiq. U.Tansikboev, N.Koraxon, R.Temurov, I.Xaydarov, N. Koʻziboevlarning chizgan rasmlari bilan tanishayotganimizda rus manzarachi rassomlari I.Levitan, A.Savrasov, va I.Shishkinlarning asarlari naʼmunasini taqqoslab koʻrsatishimiz mumkin. Suratlarni solishtirish maboynda oʻquvchilar tabiat goʻzalligini xis qilishi, kishilarning qadimiy va hozirgi hayoti haqida tassavvurga ega boʻladilar. Tasviriy sanʼat

metodlarini ilm dargohlarida o'rgatishini biz ilk martoba tarixda qadimgi misrliklar faoliyatida ko'rishimiz mumkin.

Bolani tasvirlashga o'rgatishning asosiy sabablaridan biri o'qitish uslubi ieroglofik xususiyatga ega bo'lganligidir. Chunki shu yo'sinda biror bir ma'noni anglatishini faqat tasvirlar orqali amalga oshirishini talab etardi.

Qadimgi Misrda yoshlarni maktabda o'qitish tizimi juda qattiqo'llik bilan hattoki majburlash darajasida olib borilgan. Belgilangan maktab qonuniga amal qilmagan o'quvchi jazolanardi. Qadimgi manbalarda yozilishicha, maktab qonun-qoidalarga bo'ysunmagan shogird gavron bilan savalanib, so'ngra uzoq vaqt qorongi zulmatda saqlangan ekan. O'sha davr maktab qonuni quyidagilarni talab etardi : "Kundalik o'qishda faol va atrofdagilarga muloyim bo'l. Hech qachon dangasa bo'lma, yo'qsa kaltaklanasan!". Maktablarga rasm chizishga o'rgatish dastlab qadimgi Misrda paydo buldi. O'qitish rassom n pedagoglar tomonidan aniq ishlab chiqilgan va tasdiqlangan metod hamda qonunlar asosida olib borilgan. Shuni ta'kidlash lozimki, Misrliklar rasm chizish va uning nazariy qonunlariga asos solganlar. O'sha davr maktablarida yoshlarga ta'lim berishning aniq ishlab chiqilgan didaktik tamoyillari bo'lmagan. Yoshlarga rasm chizishni o'rgatish naturani kuzatish, tahlil etish, atrof tabiatdagi voqea va hodisalarni kuzatish orqali emas, balki oldindan ishlab chiqilgan andozalar asosida olib borilgan.

Misrliklardan farqli o'laroq

Qadimgi Yunon rassomlari tasviriy san'atni o'qitish borasida ta'lim-tarbiyaga o'zgacha yondoshib, uni tubdan o'zgartirib boyitdilar. Ular yosh rassomlarni ko'proq tabiatni o'rganishga va uni ajralmas bo'laklaridan biri bo'lgan inson go'zalligini yuksak darajada tasvirlashga chaqirganlar. Ular qo'dagan metodlar rassomlarning borliqdagi xodisalarini insonning tabiat bilan chambarchas uyg'unligini kengroq bilib olishlariga yordam beradi, narsalarning shakli, konstruksiyasini elementar tahlil kilish va umumlashtirish qobiliyatlarini hamda kuzatuvchanligini o'stirish imkonini beradi va tasviiry san'at darslari shu tarzda tashkil etiladi.

2. Bob. Oʻrta umumtaʼlim maktablari tasviriyl sanʼat darslarida amaliyl sanʼat tarixini bogʻliql xolda oʻqitilishining afzalliklari

Moddiy madaniyat avvalo ibtidoiy odamlarning mehnat qurollari, turar joylari, ust-boshlari, jangovar qurollari va uy-roʻzgʻor buyumlarida koʻzga tashlanadi. Ibtidoiy odamlar eng avval oddiy tosh va yogʻochdan qurol sifatida foydalanganlar. Keyinchalik esa yogʻochdan soʻyillar, nayzalar, kamon va uning oʻqlarini yasashgan. Tosh parchalaridan esa choʻqmoqlar, qirgʻochlar, tosh boltalar, kamon oʻqi va nayza uchlariga paykonlar yasashgan. Ular hayvon suyaklaridan ham nayza, kamon oʻqining uchlari, teshgich, bigiz, sanchqi va boshqa qurollar yasashni oʻzlashtirganlar. Odamlarning ongi rivojlanib, bilim darajasi oshgani sari mehnat qurollari ham takomillashib borgan. Ular yetmirni kashf etganlaridagn soʻng undan qishloq xoʻjalik qurollari-omoch tishi, ketmon, tesha, uy-roʻzgʻor buyumlari va jangovar qurollar yasay boshlaganlar. Yogʻochdan esa omoch, mola, oʻgʻor, hovoncha, arava va boshqa buyumlar yasaganlar. Ibtidoiy odamlar dastlab ochiq joylarda, gʻorlarda, daraxt kovoklarida yashaganlar. Keyinchalik esa yertoʻda, atrofi va usti qamish yoki teri bilan yopilgan chaylalar, panalar qurib yashaganlar. Bundan 8-10 ming yillar muqaddam paxsa va guvaladan yasalgan uylar, poleolit va jez davrlarida esa xom gʻashdan qurilgan uylarda paydo boʻlgan. Novdalar, xodalar, qagʻozlar, chim, loy, tosh va boshqalar uy-joylar qurish uchun xom ashyo hisoblangan. Uy-roʻzgʻor jihozlari novda, qayin poʻstlogʻi, bambuk, kokos, yongʻoq poʻchogʻi, qovoq, yogʻoch, toshbaqa zirhi, loy, teri, suyak va boshqa narsalardan yasalgan. Oziq-ovqat xom ashyosi va tayyor ovqat ana shu narsalardan yasalgan idishlarga solingan. Ovqat dastavval qizitilgan toshlar yordamida yogʻochdan oʻyilgan idishlarda pishirilgan. Ammo goʻsht uzoq vaqt homligicha isteʼmol qilingan, keyinchalik esa u tabiiy olovda pishirilib isteʼmol qilingan. Yer yuzining baʼzi joylarida odamlar goʻshtni qaynoq suvli tabiiy buloqlarda ham pishirib yeganlar.

Har bir davrning oʻz madaniyati boʻlgani kabi ibtidoiy jamoa tuzumining ham oʻziga xos madaniyati boʻlgan. Kishilik madaniyatining boshlangʻich davri va asosiy poydevori uzoq zamonlarga borib taqaladi. Shu oʻrinda madaniyatning oʻzi

nima degan savol tug'uladi. Madaniyat-bu jamiyatning, kishilarning ishlab chiqarish, ijtimoiy-siyosiy va manaviy hayotida qo'lg'a kiritgan yutuqlari majmuidir. U bir biri bilan bog'langan moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'linadi. Moddiy madaniyat deyilganda imorat, suv inshootlari, uy-ro'zg'or asbob-anjomlari, aloqa vositalari, mehnat, aslaha, jangovar qurollar, kiyim bosh va inson uchun kerak bo'ladigan barcha buyumlar tushuniladi. Ma'naviy madaniyat deyilganda esa til, tafakkur, ahloq, fan, san'at, adabiyot, musiqa, o'yin, bilim, huquq va din kabi tushunchalar tushuniladi.

Kulolchilikning paydo bo'lishi ibtidoiy jamoa tuzumi davrining eng katta kashfiyotlaridan biri edi. Shu davrdan boshlab odamlar go'sht va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini sopol qozonlarda pishirib yeganlar.

Kiyim-kechak moddiy madaniyatning bir shakli bo'lib, u ibtidoiy jamoa tuzimining ancha keyingi davrida paydo bo'lgan. Ungacha esa odamlar yalang'och va yarim yalang'och holda yashaganlar. Qadimgi odamlar deb atalmish kishilar turli iqlim sharoitiga ko'ra barg, poxol, qamish, parranda patlari va hayvon terilaridan belbog'a, peshband, yoping'och sifatida foydalanib kelganlar. Odamlar jun va zig'or kabi tabiiy toladan mato tayyorlaganlaridan so'nggina asl ma'nodagi kiyim-kechak paydo bo'lgan. Ayniqsa, odamlar shimol tomon siljib borishar ekanlar, badanni isitish, sovuqdan saqlanish uchun ehtiyoj sezib, katta-kichik mo'ynali va mo'ynasiz hayvon terilaridan issiq kiyimlar tayyorlaganlar.

Chorvachilik rivoj topib, ularning junidan ip yigirish kashf etilgach, undan mato to'qilgan. Matodan esa zaruriy kiyim-kechak tayyorlangan. Ip yigirish, mato tayyorlash ibtidoiy jamoa tuzimining poleolit davriga to'g'ri keladi. Shu davrda ip yigirish charxi, kulolchilik dastgohi kashf etilgan. Bu to'qimachilik va kulolchilikning rivojiga katta turtki bo'lgan.

Shunday qilib, uy-ro'zg'or buyumlari, mehnat, jangovar qurollar, uy-joy, kiyim-kechak va boshqa zaruriy narsalarning kashf etilishi ibtidoiy odamlarning kundalik mehnat faoliyati va amaliy bilimlarning natijasi bo'lgan. Moddiy madaniyat ma'naviy madaniyatga nisbatan juda qadimiylidir. U kishilikning eng qadimgi davriga borib taqaladi.

Kishilikning maʼnaviy madaniyati moddiy madaniyatga nisbatan keinyroq paydo boʻlgan. Maʼnaviy madaniyat ham dastlab juda sodda boʻlib, oʻsha davr kishilarining mehnat faoliyati bilan chambarchas bogʻliq edi. Ayrim olimlar ibtidoiy davr kishilarini vahshiy, nodon deb hisoblaydilar. Bu toʻgʻri emas, albatta. Ibtidoiy odamlarning bilim darajasi dastlab ancha cheklangan edi.

Ammo yashash uchun kurash jarayonida ular hayotni kuzatadilar va tajriba orttira boradilar. Ana shuning natijasida yangidan-yangi tasavvurlar va tushunchalar paydo boʻladi. Tafakkur ham, til ham rivojlana boradi. Bu esa jamiyatning maʼnaviy rivojlanishini tezlashtirib yuboradi. Qurol-yaroqlar tayyorlash, temirchilik, ovchilik, baliqchilik, chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandchilik bilim va tajribaning toʻrlanishi natijasida ularda oʻsimliklar haqidagi botanik bilimlar toʻplangan.

Ayni paytda ibtidoiy kishilar yovvoyi hayvonlarni ovlash jarayonida hayvonlarning qaerda ovqatlanishi, suv ichishi, yashashi, koʻpayishi ham kuzatganlar. Bu bilan ular dastlabki zoologiya bilimiga asos yaratganlar. Chunonchi, hozirgi eng qoloq qabilalar ham oʻzlari yashab turgan joyni va uning tevarak-atroflarini, hayvonlar va oʻsimliklar dunyosini yaxshi biladilar.

Jahonning barcha ibtidoiy kishilari oʻzlari yashab turgan joyni, u yerdagi oʻsimlik va hayvonlarni ancha yaxshi bilganlar. Chunki u yerdagi oʻsimliklarni yaxshi bilmay va hayvonlarning xulq-atvorini oʻrganmay turib, tirikchilik qilish ancha qiyin boʻlur edi.

Ibtidoiy kishilar ham tez-tez kasallikka chalinib turganlar. Bu davrda ham kasalliklarni davolash uchun oʻsha zamonning oʻziga xos sodda tabobati boʻlgan. Ibtidoiy odamlar qadim-qadimdan boshlab kasalliklarni davolashda oʻsimliklar, mevalar shuningdek hayvonlar va mineral jismlardan foydalanganlar. Xalq tabobati deb ataladigan hozirgi zamon tibbiyotining negizlari qadim zamonlarda paydo boʻlgan.

Ibtidoiy kishilar silash, uqalash usuli bilan baʼzi kasalliklarni davolashda frolbinlik, sehrgarlik va jodugarlik usullari ham qoʻllanilgan.

Ibtidoiy kishilar mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda tabiatni kuzatib, ob-havoni oldindan aytib berish qobiliyatiga ham ega boʻlganlar. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida tarbiyaga ham alohida eʼtibor berilgan. Bolalarning yoshlikdagi birinchi tarbiyachisi onalar boʻlgan. Ular katta boʻlishgach qizlar, ayollar, bolalarga esa erkaklar tarbiyachilik qilganlar. Tarbiya oʻsha davrdagi mehnat va hayot bilan chambarchas bogʻliq edi. Ammo yoshlar hamisha kattalarning nazoratida boʻlganlar.

Ibtidoiy sanʼat.

Ibtidoiy sanʼat maʼnaviy madaniyatning bir koʻrinishi boʻlib u ham ibtidoiy davrda kelib chiqqan. Ibtidoiy sanʼatning kelib chiqishi ham odamning mehnat faoliyati bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan. Eng qadimgi va qadimgi odamlar ham sanʼatning nima ekanligini bilishmagan. Ibtidoiy sanʼat urugʻchilik jamoasidan boshlab paydo boʻldi va rivojlana boshladi. Ibtidoiy sanʼat xilma-xil boʻlib bir necha turga boʻlinadi. Ularning bir turi suyak, tosh parchasi, shox, kulolchilik buyumlariga chizilgan belgilar, odam, hayvon va har xil narsalarning tasvirlaridir ibtidoiy sanʼatning ikkinchi turi gor devorlari va shiplariga qora, qizil koʻk sariq jigar rang oq boʻyoqlar bilan ishlangan har xil hayvonlar, chunonchi, sher, yoʻlbars, qoplon, bugʻ, karkidon, arxar, togʻ echkisi, yovvoyi buqa odam va boshqa narsalarning tasvirlaridir. Ibtidoiy sanʼatning ikkinchi turi gʻor devorlari va ishlariga qora, qizil, koʻk, sariq, jigarrang, oq boʻyoqlar bilan ishlangan har xil hayvonlar, chunonchi, SHer, yoʻlbars, fil, qoplon, bugʻ, karkidon, arxar, togʻ echkisi, tur, yovvoyi buqa, shuningdek odam va boshqa narsalarning tasvirlaridir. Bunday tasvirlar Turon, Sahroi Kabir, Markaziy Osiyo va Gʻarbiy Yevropada koʻp uchraydi. Undagi ov, mehnat, jang va boshqa manzaralar kishi diqqatini oʻziga tortadi.

Qoya toshlarning silliq sirtiga oʻrib-oʻyib, chizib, ishqalash usuli bilan ishlangan qoya tosh tasvirlari ham ibtidoiy sanʼatning bir turidir. Ular asosan yer yuzidagi togʻli joylarda ancha keng tarqalgan. Ularning koʻpchiligini ham hayvon, buyum, jangovar, mexnat qurollari va odamlarning tasvirlari tashkil qiladi. Qoya tosh tasvirlarida ibtidoiy kishilarning kundalik mehnat bilan bogʻliq manzaralar

keng urin olgan. Qoya tosh tasvirlarining ajo-naömunalari Osiyo, Afrika va Yevropada koöp uchraydi.

Ibtidoiy sanöatning yana bir turi haykaltaroshlik boölib, u ham urugöchilik jamoasining rivojlangan davrida paydo boölgan. Unda koöproq ayollar, ozroq erkaklar, har xil hayvon va narsalarning haykal tasvirlari ham koöpchilikni tashkil etgan. Ibtidoiy davrga mansub bunday haykalchalar, toshdan, suyakdan va boshqa buyumlardan ishlangan. Bu haykal-tasvirlar ham oösha davr kishilarining mehnat faoliyati va eötiqodi bilan chambarchas bogöliqdir. Sopol va boshqa buyumlarga chizilgan turli rasmlar ham ibtidoiy sanöat turlaridir.

Ibtidoiy sanöatning turlaridan yana biri niqoblardir. Uning kelib chiqishi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Niqoblar xozirgi zamon qoloq qabilalarda ham keng tarqalgan. Ibtidoiy odamlar va hozirgi qoloq qabilalar niqob tutash bilan ov paytida hayvon qiyofasiga kirishgan, dushmanlarini qoörqitishgan va shu yoö bilan oözlarini himoya qilishgan.

Musiqqa, koöshiq va oöyin ham ibtidoiy sanöat turlaridan. Dunyoda biror halq yoöqki. Unda musiqqa, ashula va oöyin boölmasin.

Ibtidoiy davrda xalq ogözaki ijodiyoti keng rivojlangan edi. Uning dastlabki turi oötmish haqidagi rivoyatlar va afsonalardir. Ammo doston, topishmoq va maqollar ibtidoiy jamoa tuzimining ancha keyingi davrida paydo boölgan va rivojlangan boölsa kerak. Shunday qilib, ibtidoiy sanöat kishilarning dastlabki umumiy ijodiy boölib, u odamlarining mehnat faoliyati, ichki ruhiyatini va hatto diniy eötiqodi bilan ham uzviy bogölangandir.

Ibtidoiy eötiqod

Ibtidoiy kishilar dastlabki hech qanday diniy tasavvur va eötiqodni bilmaganlar. Diniy tasavvur va eötiqod ibtidoiy jamoa tuzimining ancha keyingi davrlarida, bundan 50-40 ming yillar burun shakllangan. Ibtidoiy kishilar tevarak atrofdagi ayrim va voqealarning sabablarini tushuna olmaganlar. Tabiatdagi turli hodisalar ñ quyosh va oyning chiqishi, ularning harakati, kun bilan tunning almashinuvi, qor, doö, yomgöir yogöshi, momaqaldiroq, chaqmoq, oösimpliklarning oösishi, yer qimirlash va boshqa hodisalarning sir-asrorlari ibtidoiy odamlarga

maʼlum boʻlmagan. Ibtidoiy odamlar bu hodisalarning negizida sirli, gayritabiiy kuchlar yashiringan deb oʻylaganlar. Ular ana shu gʻayritabiiy kuchlarga eʼtiqod qilishgan.

Ibtidoiy kishilar yer yuzi boʻylab tarqalib, turli mintaqalarda istiqomat qilganlar. Ularning tirikchiligi ham har xil boʻlgan. Tabiatdagi xodisalar va tirikchilikning xilma-xilligi turli eʼtikodlarning vujudga kelishiga sabab boʻlgan. Tabiat va jamiyat hodisalari bilan bogʻlangan ayrim tabiiy kuchlarga ishonish ibtidoiy eʼtiqod deb ataladi. Uning totemizm, animizm, sehrgarlik, fetishizm kabi shakllari ibtidoiy jamoa tuzumi davrida ancha keng tarqalgan. Ibtidoiy eʼtiqod shakllaridan biri totemizm tirikchilikning ovchilik va termachilik rivojlangan davrida paydo boʻlgan.

Totemizm bu odamlar guruhi, jamoasining biror xayvon yoki oʻsimlik turi bilan gʻayritabiiy qarindoshlik aloqasiga ishonishdir. Shunga muvofiq totem hayvon va oʻsimlik niholi darajada hurmat qilingan. Totemizmning ilk bosqichida totem hayvonni oʻldirish va goʻshtini istemol qilish mann etilgan. Ular muqaddas hisoblangan.

Bu hayvonning goʻshti faqat urugʻning urf-odat marosimlari vaqtidagina isteʼmol qilingan. Koʻpgina ibtidoiy qabilalarda totem hayvon sharafiga bayramlar oʻtkazilgan. Totemizm sarqitlari koʻpgina halqlarda yaqin vaqtlargacha saqlanib qolgan. Ibtidoiy eʼtiqod shakllaridan yana biri animizm boʻlib, u «ruh», «jon» degan maʼnolarni bildirgan. Animizm bu dunyoda ruhlari, jonlar shaklidagi gʻayritabiiy kuchlarning borligiga ishonishdir. Odam, yer, oʻrmon, suv, uy va boshqalarning ruhlari shular jumlasidandir. Urugʻchilik jamoasining rivojlanishi munosabati bilan urugʻ aʼzolari, urugʻ boshliqlari, jangchilari ruiga sigʻinish kabi ajdodlarga sigʻinish paydo boʻlgan. Rivojlangan ona urugʻi davrida ayollarning martabasi oshadi. Tabiatning gʻayritabiiy kuchlari ayollar nomi bilan ataladi. Ilk dehqonchilikning rivojlanishi munosabati bilan ona yerga sigʻinish rivoj topadi. Koʻp xalqlarda oy, quyosh va yulduzlarga sigʻinish ham kuchayadi.

Ibtidoiy odamlarda sehrgarlik n odamning oʻzining gʻayritabiiy kuchlari taʼsir koʻrsata olish qobiliyatiga ishonishiga asoslangan amallari boʻlgan. U ibtidoiy

odam hayotining hamma tomonlariga taʼsir oʻtkazgan. Bu ibtidoiy davrga oid tasviriy sanʼatda ham oʻz ifodasini topgan. Chunonchi, oʻsha davrga oid boʻlgan boʻyoqli va qoya tosh tasvirlarida nayza sanchib yaralangan hayvon tasvirlari buning dalilidir. Bu bilan ovchilar boʻlgʻusi ovning baroridan kelishini koʻzlab, oʻzlariga u yoki bu hayvonni sehlaganlar.

Shunday qilib, eʼtiqod ibtidoiy jamoa tuzumining ancha keiyngi davrida vujudga kelgan va jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlana borgan.

Qadimgi Old Osiyo madaniyati

Osiyo ham ilk tsivilizatsiya oʻchoqlaridan biri boʻlib, uning moddiy va maʼnaviy madaniyatining boshlanishi va rivojlanishi paleolit, neolit, bronza davrlarida sodir boʻlib borgan.

Qadimgi madaniyatning tasviriy-sanʼat naʼmunalarini Oʻzbekistonning janubida Zarautsoy yonidan topilgan toshga chizilgan rasmlar, chunonchi oʻsha davrdagi ov manzarasi misolida tasavvur etish mumkin.

Neolit va bronza davrlarida (mil.avv. IV-II ming yillar) sopol buyumlar, bronzadan, suyakdan mayda murakkab qurollar yasaladi va bu jarayon asta-sekin moddiy madaniyatning yuksalishiga olib keladi.

Mil.avv. 2 minginchi yil oxiri 1 ming yilliklar boshlarida oʻrta Osiyoda muhim tarixiy etnografik voqealar sodir boʻladi: Baqtriya, Soʻgʻod va Xorazm kabi tarixiy-madaniy hududlar, qadimgi baqtriyaliklar, xorazmliklar, soʻgʻodlar, saklar singari etnik qavmlar shakllanadi. Shu etnoslar asosida qadimgi Xorazm va qadimgi Baqtriya, soʻngra Soʻgʻod, qangʻa, Parkana davlatlari vujudga keldi. Shu davrda Midiya mixxat yozuvi asosida Xorazm, Baqtriya, Soʻgʻod, Urxon-Enasoy yozuvlari paydo boʻldi va mintaqada xalq ogʻzaki ijodi bilan birgalikda yozuv madaniyati rivojlandi.

Biz uzoq ajdodlarimiz toʻgʻrisida asosan «Avesto»da, koʻproq yunon tarixchilari Gerodot, Polien, Kvint Kurtsiy Ruf, Rim adibi Yustinning , Pompey Trog, Plutarx, Arrian, Diodot asarlarida maʼlumotlarni uchratamiz.

Mil.avv. 529-329 yillar Oʻrta Osiyo Eron Ahmoniylari tobeligida boʻlishiga qaramay mintaqaning moddiy rivojlanishi oʻziga xos yoʻldan bordi. Shu bilan

qadimgi davrdagi Oʻrta Osiyo madaniyatining shakllanishi va rivojlanishiga Eron, Ellin, Hind madaniyatlarining taʼsiri va ularni oʻzaro bir-biri bilan boyib, rivojlanib borish jarayoni ham muhim oʻrin tutdi. Buyuk ipak yoʻlining kuchli taʼsiri oʻdlaroq mintaqaviy, qitʼalararo madaniy aloqalar kuchayib bordi.

SHahar madaniyatining (arxitektura, haykaltaroshlik, tasviriy sanʼat) gullab-yashnashida Ellinizm madaniyatining taʼsiri kuchli boʻldi. Masalan, toʻgʻri chiziqli, toʻrtburchakli uylar, Ark (ustunli), hammomlar qurilishi bizga Yunonistondan kirib kelgan. Numizmatika sohasida Yunon-Baqtriya davlatida chiqarilgan noyob metall tangalar bizgacha yetib kelgan.

Haykaltaroshlik va tasviriy sanʼatda Oʻrta Osiyo, Yunon va Hind uslublari qoʻshilib, buning samarasida Kushonlar va Eftaliylar davlatlarida noyob asarlar yaratilgan. Bularga «Musiqachi ayollar», Varaxsha, Xolchayontepa kabi joylardan topilgan tasviriy sanʼat naʼmunalari misol boʻla oladi. Koʻp xudolikdan yakka xudolikka oʻtish davrining birinchi dunyoviy dini- Zoroastrizm (Otashparastlik) va uning ilohiy kitobi (21 bobdan iborat) «Avesto» vatani qadimiy Xorazm hisoblanadi. Kitobda tilga olingan hududlar orasida eng eʼzozlangani n «Ayryanam Vaeju» oʻtroq kabilalar, chorvadorlar yashagan keng sayhonlar, daryo va koʻllar, togʻlar yon bagʻrida joylashgan Xorazm oʻdkasidir. Xorazmliklarning «Lazgi», «Norim-norim», «Orazibon» kabi jozibali raqslari ham zardoʻshtiylarning ming yillar davomida takrorlanib kelayotgan marosim (ritual) raqslarini eslatadi. Xorazm hofizlarining «Dugoh», «Segoh», «Chorgoh», «Panchgoh» kabi qoʻshiqlari ham maʼlum maʼnoda qadimgi ajdodlarimizning «Goh» va madhiyalariga oʻxshab ketadi.

Zardoʻshtiylik dinining paygʻambari Zardoʻsht ibn Sofit Tumon 628 yilda Midiyaning Ragi shahrida yashagan kohin Purushasp (Sofid ibn Tumon) va uning xotini Dugdovadan dunyoga kelgan. Onasi xorazmlik sarbon Faroximning qizi boʻlgan. Zehni oʻtkir koʻplab dunyoviy va diniy bilimlarni egallagan Zardoʻsht yangi dunyoviy ilmga asos soladi. Bu taʼlimotning bosh xudosi n Axura-Mazdaga sigʻinishni targʻib qila boshlaydi. Axura-Mazda olamni yaratuvchi, yorugʻdik, farovonlik, sihat-salomatlik, tinchlik kabi yaxshi ezgu-niyatlar xudosi. Uning aksi

o‘ldaroq Ahriman esa zulmat, urush, o‘lim kabi qabihliklar xudosidir. Zardo‘shiylik dinida olov nihoyatda muqaddas sanalgan. quyosh yorug‘lik manbai bo‘lib, olov uning bir qismi hisoblangan quyosh nuri barcha birliklar manbaidir (haqiqatdan ham shunday).

Zardo‘shiylikda Axuramazdadan tashqari Mitra, Farna, Nohid (Anaxita), Mirrix, Xutbi kabi xudolar ham tilga olingan. Mitra-quyosh va yorug‘lik xudosi. U jangovar yigit siymosida tasvirlanadi. Farna mahalliy aholi tilida Xumo ba‘zan Anqo nomi bilan yuritilgan. U baxt va tole ma‘budasi. Nana yoki Nohid hosildorlik va farovonlik ma‘budasi. U bir qo‘lida anor yoki olma tutgan go‘zal ayol qiyofasida tasvirlanadi. Mirrix-urush va g‘alaba xudosi, harbiylar madadkori bo‘lib, qurollangan jangchi qiyofasida aks etadi. Xubbi-suv xudosi, qayiqchilar va miroblar homiysi, zabardast yigit siymosida gavdalangan.

Bu dinda, olov, tuproq, suv va havo kabi to‘rt unurni iflos qilish yoki tahqirlash eng katta gunoh hisoblangan. «Avesto»da xalq tabobati odobi, estetikasi sog‘dom turmush tarzi o‘z ifodasini topgan. Unda har bir inson ezgu fikr, odil so‘z va halol mehnat bilan yashashi zarurligi ko‘rsatilgan.

Zardo‘shiylik dinidagi quyidagi tamoyillar boshqa dunyoviy dinlarda ham o‘z aksini topgan. Bular:

1. 5 vaqt xudoga sig‘inish;
2. Narigi dunyo to‘g‘risida;
3. Odamlarning ruhlarini jannat va duzohga ajratuvchi qil ko‘prik haqida;
4. Oxirat haqida;
5. Sog‘dom turmush haqida;
6. Tabiatni e‘ozlash va unga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish haqida

Zardo‘shiylik dini o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy hayot va adolatni himoya qiluvchi din sifatida shakllangan. Shu sababli u Turon, Eron va Xurosandada keng taro‘algan. Jumladan, Eron Ahmoniylari hukmdori Doro I ibn Vistasp (mil.avv. 622-486 yy) davrida zardo‘shiylik davlat dini sifatida tan olingan. Eronda sasoniylar sulolasi davrida «Avesto» 21 ta kitob shaklida to‘da holda yozilgan va

podshoning kutubxonasida saqlangan. Kitoblar sankrit tilida, 48 harfdan iborat pehlaviy yozuvida bitilgan. Uning toʻda nashri Aleksandr Makedonskiy bosqini davrida uning qoʻliga tushgan va koʻp qismi yoʻq qilingan. Chunki bunday dini, maʼnaviyati yuqori boʻlgan xalqlarni tobe qilib oson boʻlmasligini bu jahongir fотиq tushunib yetgan edi.

Qadimgi davrda Oʻrta Osiyoda koʻpdinlik mavjud boʻlgan. Chunonchi bu hududda buddizm, moniylik, shamonlik, nasroniylik dinlari hukm surgan. Bu dinlarga sigʻinuvchilar oʻrtasida bir-birlarini hurmat qilish, diniy bagʻrikenglik tenglik amalda boʻlgan. Bu esa kishilar ongida baynalminallik hislarini shakllantirishda muhim omillar boʻlib xizmat qilgan.

Markaziy Osiyoning tub xalqlari tabiatida boshqa millatlarning vakillariga nisbatan kengfeʼllik azalda mavjud boʻlib kelgan. Bu sof insoniy tuygʻu, masalan, oʻzbeklarda shu qadar rivojlanganki, milliy-maʼnaviy kengfeʼllik, toqatlilik ularning umumiy madaniyati va ruhiyatining ajralmas qismiga aylanib ketgan.

Shunday qilib, Bobil, Misr, Hindiston, Xitoy kabi Oʻrta Osiyo ham jahon ilk tsivilizatsiyasining beshiklaridan biri hisoblanadi. Chunki, bu yerda ham juda qadimdan boshlab jahon madaniyati va maʼnaviyatining bebaho durdonalari yaratilib kelingan. Bu esa biz vorislarda birinchidan, buyuk oʻtmishdoshlarimizga nisbatan chuqur minnatdorchilik hislarini tugʻdirsa, ikkinchidan, ular bilan chuqur faxrlanish tuygʻusini hosil qiladi.

Insoniyat tarixida ilk tsivilizatsiyalar paydo boʻlganiga 6 ming yildan oshdi. Shunday tsivilizatsiyalarning eng qadimgilari Misr va ikki daryo oraligʻi Mesopatamiyada vujudga kelgan. Avvalo bular ibtidoiy jamoa tuzumida yaratilgan moddiy va madaniy madaniyat yutuqlarini oʻzida aks ettirgan tarzda taraqqiyotning davomi boʻlgan. Ikkinchi tomondan, bu yerlarda iqlimi qulay, yeri unumdor boʻlganligidan sugʻorma dexqonchilik tez rivojlanib borgan.

Qadimgi Misr madaniyati er.avv. IV ming yillikdan er.avv. 332 yilgacha davrni oʻz ichiga oladi. U oʻziga xos xususiyatlari, yaʼni yozuvi, adabiyoti, sanʼati, arxitektura qurilishi bilan ajralib turadi.

Tigr va Yefrat daryolari oraligʻidagi yerlarning asosiy aholisi shumerlar, akkadlar, vavilonlar, xaldeylar, ossuriyalilar, xurritlar va arameylardan iborat boʻlgan. Bular orasida Shumer, Bobil, Ossuriya madaniyatlari anchayin yuksaklikka koʻtarilgan.

Qadimgi Hindiston va Xitoy madaniyatlarining xam oʻziga xos vujudga kelishi, rivojlanishi xam antik dunyo tarixida oʻziga xos jixatlari bilan koʻzga tashlanib turadi.

2.1. O'quvchilarga xalq amaliy bezak san'ati o'rgatish orqali amaliy san'atga bo'lgan qiziqishini oshirish

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'ati turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O'zbek diyorida vujudga kelib gullab yashnagan san'at turlari bemisol va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bunday kamolot va taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, o'zbek amaliy bezak san'ati turlarining shox ildizlari insoniyatning bolaligi, ya'ni ibtidoiy jamiyatga borib taqalishining guvohi bo'lamiz.

O'lkamiz zaminidagi tarix qatlamlarini qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berishi usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlangan bo'lib, asrlar osha hozirgacha uzluksiz davom etib kelmoqda.

Inson ongli faoliyatining ajralmas qismi bo'lmish badiiy tafakkur va shunga muvofiq badiiy-ijodiy faoliyat insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bunday faoliyat natijasida kelib chiqadigan estetik-badiiy idrok qobiliyati kishilarda olamni, undagi mavjudotlar, narsalar va voqea-hodisalarni, atrof-muhitdagi shakllar va ranglarni turfa shakl-shamoilda qaytadan aks ettirishga havas uyg'otdi. Shakl va ranglarning real hamda stillashtirilgan tasvirlarini yaratish shu tariqa kelib chiqdi va u o'z navbatida, odamlarning kundalik turmushlaridan o'rin ola boshladi. Natijada badiiy bezaklarning xilma-xil shakllari va turlari paydo bo'ldi. O'zbekiston va umuman O'rta Osiyo xalqlarining bizgacha yetib kelgan san'at asarlari orasida naqshlar asosida yaratilgan badiiy asarlar alohida ko'p sonni tashkil etadi. Boshqa san'atlarga nisbatan bunday naqshli bezaklar ko'pligining va takomil topganligining muayyan tarixiy sabablari bor. Ma'lumki, Islom mamlakatlarida mavjudotlar tasvirini ishlash keng odat tusiga kirmagan, zero, mavjudotni yarata olish faqatgina qodir Tangriga xosdir, insonlar esa bunday ishni bajarishga ojizdirlar, inchunin, bordiyu biror ishni yuqori takomil darajasida ijro etish imkoni yo'qligi avvaldan ma'lum ekan, bunday ishga kirishmoqlikning o'zi aqldan emasdur.

Boshqacha aytganda, hech bir tasvir unda ifodalangan mavjudot darajasiga kutarila olmaydi, shu bois tasvir soxta boʻladi.

Tasviriy sanʼatga bu qadar chuqur, falsafiy yondoshish natijasida shartli iliq stillashtirish, ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil oʻzbek milliy bezak sanʼatining gurkirab rivojlanishiga turtki boʻlganki, hozirda jahonga mashhur meʼmorchilik yodgorliklarimi ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, hattotlik, toshtaroshlik va boshqa turdagi sanʼatlarning ajoyib darajada uygʻunlashgan mujassamligidan iboratdir.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Termiz, Toshkent, Qoʻqon va boshqa shaharlardagi meʼmorchilik va xalq amaliy bezak sanʼati yodgorliklari oʻtmish avlodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan bebaho sanʼat asarlarining naʼmunalari bupib, xalqimizning va shu bilan birga jahon madaniyatining durdonalaridan boʻlgan badiiy va madaniy tashkil etadi.

Xalq amaliy bezak sanʼati kishilarning maʼnaviy olamini boyitadi, badiiy didini koʻpligidan kelib chiqadigan oʻziga xos taʼlim shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham oʻzbek halq amaliy sanʼati kishilarni badiiy, axloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning dunyoqarashlarini shakllantirishda hamda madaniy darajasini yuksaltirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi.

Maʼlumki, mavjud barcha sanʼat turlari oʻz oʻquvchisiga, tinglovchisiga yoki tomoshabinga oʻtkazadigan badiiy, hissiy, ruhiy taʼsiri orqali bilim beradi va tarbiyalaydi. Shu oʻrinda amaliy bezak sanʼati turlarining fazilatlarini juda amaliy ham oʻziga xos boʻlib, ularni boshqa hech narsa bilan almashtirib boʻlmaydi. Yaʼni, bunday sanʼat asarlari ayni choqda ham badiiy, ham amaliy vazifalarni bajara olishi ularning xalq orasida keng tarqalishiga sabab boʻlgan.

Yaqin oʻtmishda oʻzbek amaliy bezak sanʼatining eng rivojlangan ganchkorlik, naqqoshlik, yogʻoch, tosh va suyak oʻymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, zarduzlik, gilamchilik, kigizchilik, savatchilik, boʻyrachilik kabi turlarining oʻziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu sanʼatlarga xos maktablar,

uslublar hamda shu sohalarida nom qozongan ustalarning xizmatlari unuta borilib, yoʻqolib ketish xavfi ostida qolgan edi.

Bunday holat hozirgi kunda sanʼatkorlar, xalq ustalari, muallimlar va sanʼat havaskorlari oldiga amaliy bezak sanʼatini saqlab qolish, ularni har tomoilama oʻrganish va rivojlantirish, yosh avlodga sanʼat sir-asrorlarini oʻrgatish orqali oʻrinbosarlar tayyorlash sanʼat asarlarini keng targʻib qilish orqali jamoatchilikning estetik didini, madaniy darajasini yanada yuqori bosqichga koʻtarilishiga erishish vazifalarini qoʻyadi.

Bu maqsadlar yoʻlida olib boriladigan ishlar xalq ustalari, sanʼatkorlar uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratish, yoshlarning badiiy taʼlim olishlari, sanʼatlarni egallashlarini tashkil etish va tugʻri ilmiy-metodik yoʻnalishda olib borish, sanʼatkor-pedagoglar tayyorlashni yoʻlga qoʻyish, tegishli ilmiy tadqiqotlarni olib borishdan iborat boʻlishi kerak.

Sanʼatkorlarni targʻib qilish uchoqlari sifatida maktablar, klublar, madaniyat capoylari, uylari, pionerlar va oʻquvchilar saroylarida tashkil etiladigan toʻgʻaraklar alohida ahamiyatga ega.

Mazkur kitobda masalaning shu jixatiga batafsil eʼtibor karatilgan. Muallif oʻzining koʻp yillik ilmiy-tadqiqot ishlari natijalariga asoslangan holda xalq amaliy bezak sanʼatining kelgusi rivojini taʼminlash yoʻllari va usullari haqida aniq tavsiyalar beradi va oʻz xulosalarini bayon etadi.

Amaliy bezak sanʼatlarini oʻrgatish mashgʻulotlarida xalk, ustalari yaratgan asarlarining beqiyos maʼnaviy qiymatlarini namoyish etish orqali yosh avlodda estetik didni shakllantirish, ularga zarur bilimlar va axloqiy tarbiya, berish, mehnat, koʻnikma va malakalarini rivojlantirish, kasb tanlashga ruhiy va amaliy tayyorlash vazifalari eʼtiborda turadi.

Oʻzbek amaliy bezak sanʼati turlarining koʻpligidan kelib chiqadigan oʻziga xos taʼlim va tarbiya imkoniyatlari natijalar beradi.

Birinchidan, yakka kishi hech qachon amaliy bezak sanʼatining hamma turlarini toʻliq oʻzlashtira olmaydi. Lekii, umumiy darajada tanishish shaxsning yuqori madaniy darajaga erishuvida zarur shartdir. Bundan kelib chiqadiki,

ushbu san'atlarni o'rgatish ikki xil shaklda amalga oshirilishi mumkin: umumiy nazariy ma'lumotlarga ega bo'lish yoki biror turini amaliy jihatdan to'liq egallash.

Ikkinchidan, har bir murabbiy o' usta o'zi chuqur egallagan san'at turini shogirdlariga chuqur o'rgatish bilan cheklanishi mumkin.

Uchinchidan, har turli mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda ushbu san'atlarning u yoki bu turi bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etishda tanlash uchun keng imkoniyatlar mavjud. Lekin har qanday bilim va hunar o'rgatishdan asosiy maqsad kelgusi amaliy, zarur vazifalarni hal etishga qaratilishi lozim. To'g'arak mashg'ulotlarida o'quvchilar bajaradigan har turli topshiriqlar ularning botanika, biologiya, tarix, adabiyot va boshqa fan soxalaridagi bilimlaridan foydalanishni taqozo etadi, ya'ni bu mashg'ulotlarda predmetlararo bog'lanishni hisobga olish zarur.

Bolalikda bo'lgan qiziqish bora-bora bir umrlik kasbga aylanish onalarining uchrashishi bilan bizga, yoshlikda birorta san'at bilan qiziqib shug'ullangan bo'lib, lekin keyinchalik boshqa kasb egasi bo'lib ketish hollari ham ma'lum. Bunda har ikki holda ham san'at olamining kishi shahsining takomillashtirishdagi vazifasi yetarlicha bajarilgan deb hisoblash mumkin. Chunki, har ikkala holda ham estetik did va ma'daniy darajaning zarur taraqqiyotiga erishiladi.

Xalq amaliy bezak san'ati an'analari tarixda avloddan avlodga o'tib kelishi bilan birga taraqqitning yangi sifatiga ega bo'lmoqda, bu jarayon, ayniqsa, hozirgi qayta qurish davrida yanada yuqori samaralarga erishuv imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda.

O'zbek milliy me'morchiligi yodgorliklari

Mustaqil O'zbekiston jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan bir davrda ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratilgan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosimiz, milliy qadriyatlarimizni tiklash - davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Natijada xalqimiz o'z taqdirining chinakam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy qadriyatlar va madaniyat sohibiga aylandi.

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi har tomonlama barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalashga bog'liq. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish asosiy maqsad qilib belgilandi. O'zbek xalqining milliy-ma'rifiy qadriyatlarini o'rganish va undan barkamol avlodni tarbiyalashda foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Buyuk mutafakkirlar, qomusiy olimlarimiz Al Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalarning ilmiy merosi, ma'naviy qarashlarida komil insonni tarbiyalash mezonlari shakllantirilgan.

Qadimgi Yunon afsonalarida keltirilishicha, go'zallik ma'budasi qizining ismi Garmoniya ekan. «Garmoniya» tub ma'nosi bilan go'zallik ramzidir. Asrlar o'tishi bilan bu, umuman, ismi jismiga monand, hamohang, shaklan mutanosib, uyg'un, mukammal, har jihatdan barkamol degan ma'nolarni kasb etdi. Garmoniyaning biz asl tasviriy san'at asarlari, shakli, zeb-ziynatlari juda mutanosib ishlangan me'moriy obidalarining haqiqiy na'munasiga nisbatan ta'rif etamiz.¹

1. Zohidov P.Z. Me'mor olami, Qomuslar Bosh tahririyati. T: 1996, 163 bet.

Me'morlik san'ati juda qadimiy tarixga ega. Me'mor dahosi bilan yaratilgan ajoyib koshonalar, saroylar, ehromlar, madrasalar, minoralar va boshqa mahobatli inshootlar insoniyat taraqqiyotining turli davrlaridan darak beruvchi noyob va bebaho xazinalardir.

Buxoro, Xiva, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va boshqa shaharlardagi me'morlik obidalarini va ularning bezaklarida cheksiz ma'naviyat xazinalari yashiringan. Ular haqida va ularni qurgan ustalar hamda shogirdlar haqida rivoyat, afsona va kabilar og'zdan og'zga o'tib, bizgacha yetib kelgan. Bu ma'naviyat xazinalarini ilmiy o'rganib, yoshlarga yetkazish va bular asosida ularga ta'lim-tarbiya berish hozirgi zamon talablaridan biridir.

Buxoro, Samarqand, Xiva va boshqa yerdagi me'morlik obidalarini hamda ulardagi bezaklar dovrug'i butun olamga tarqalgan.

Me'morchilik obidalarining bezaklari jozibasi hamda salobati tarifi og'zdan og'zga o'tib, rivoyat, afsona, hikoyalarga aylangan.

Bu me'morlik obidalarini ko'rgan ustalar dili pok, mehnatkash, tabiatan musiqaga mehr qo'yg'an inson bo'lishgan. Shu bois ular xalq og'zaki ijodida, dostonlarda, rivoyatlarda hamisha ijobiy qahramon sifatida gavdalanadi. Odamlar ustalar suhbatida bo'lishga oshiqqanlar. Ustalar davrasida muhrlanib qolgan ustoz va shogird orasidagi hazil - mutoyiba, ustalar hayotidan ayrim qiziqarli voqealar og'zidan og'zga o'tib yurgan. Imorat qismlari, qurilish tartibi ham rivoyatlarga singib ketgan.³

Tarixiy obidalariga va ularning bezaklariga nazar solar ekanmiz, ular unsiz tarzda so'zlayotganini his etamiz. Ular bamisoli bir kitobdir. Ajdodlarimiz me'morchilik obidalarida qo'llagan bezaklar, shakl va ranglar orqali kishilarimizni davolaganlar. Ular unsiz ovozda inson ruhiga ta'sir etgan, falsaiy fikr bergan. Buni Alisher Navoiyning "Sab'oi sayyor" asarida telba bo'lib dolgan shoh Bahromni davolash maqsadida serhasham, serjilo naqshu nigorga ega bo'lgan yettita qasr qurilishida aks ettiriladi. Agar biz ajdodlarimiz ma'naviy xazinalarni atroflicha o'rganar ekanmiz, ularda ming-minglab rivoyat, hikoyat, ertaklarni uchratamiz. Lekin bu ma'naviy xazinalarni bir tizimga keltirilmagan, ularning ramziy, falsafiy, ruhiy, shifoviy va boshqa qirralari ilmiy o'rganilmagan. Shuning uchun biz matbuotda e'don qilingan va ustalarimizdan eshitgan xalq og'zaki ijodi durdonalari - rivoyat, hikoyat, ertak kabilarni bir joyga to'plab, ularni bir tizimda keltirdik. Masalan, ustozlar, shogirdlar, me'morlar, me'morchilik obidalar va hunarmandnilikka oid rivoyat, hikoyat va ertaklarni ajratdik.

Ularining ma'dum qismni kasb-hunar kollejlari ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish uchun tayyorladik. Xalq og'zaki ijodining bu kabi ayrim durdonalarini sizga tavsiya etarkanmiz, o'ylaymizki, ular aziz kitobxon uchun ham qiziqarli bo'ladi va ma'naviy dunyosi boyigga xizmat qiladi.

³ Bulatov. S.S.O'zbek xalq amaliy be'zak san'ati. Toshkent.1991 yil.

2. 2. O'quvchilarga ganchkorlik san'ati orqali sharqona odab ahloq munosabatlarini singdirish

Ganchkorlik qadimiy san'at turlaridan biri bo'lib, o'z aksi husn jamolini dunyo me'morchiligida, shu jumladan O'rta Osiyo, Eron, Turkiya, Arabiston, Afg'oniston va boshqa Sharq mamlakatlari me'morchiligida namoyon etib kelmoqda. Ayniqsa, O'rta Osiyoda yaratilgan asarlar o'ziga xos badiiyligi kompozitsiyasi va ishlanish uslubi bilan farq qiladi. Hozirgi kunda ganch serquyosh O'zbekistanimizda ardoqlanib, avaylab muhofaza qilinayotgan ko'pgina yodgorlik obidalariga ko'rkamlik, go'zallik baxsh etib turibdi. U Samarqand, Buxoro, Toshkent, Qo'qon, Marg'ilon, Xiva, Shahrisabz va boshqa shaharlardagi tarixiy obidalarni kurish va bezatishda ishlatilgan.

Ganch qorishmasi yangiligida oson kesiladi, undan xohlagancha shakllarni o'yish, yasash mumkin, lekin u qotgandan so'ng qattiq toshga o'xshab qoladi. Ustalarimiz uning bu ajoyib xususiyatidan qadimdan foydalanib kelganlar. Shu tariqa hozirgacha bu hunar avloddan avlodga o'tib tarixiy an'ana sifatida rivojlanib boryapti. Ganchkorlik san'atimiz faxri, beqiyos va bebaho xazina. Hech shubhasizki, uni chuqur o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Ganch o'ymakorligi san'ati asrlar davomida o'ziga xos uslub bilan rivojlanib keldi. Bu san'atning eng qadimgi, o'rta asrlardagi va XX asrdagi rivojlanishini ko'zdan kechirib, o'rganib chiqsak bu davrlardagi ganch o'ymakorligi birbiridan mutlaqo farq qiladi. Qadimgi ganch o'ymakorligi hajmiy bo'lib, realistik tasvirlar asosida ishlangan. Ularda ko'pincha odamlar, hayvonlar, qushlar tasviri ishlatilgan. Eramizning birinchi asrlaridayoq kishilar ganchni ajoyib xususiyatga ega ekanligini bilib, qal'alar, karvonsaroy va boshqa joylarni bezay boshlaganlar. Bo'lib o'tgan janglar oqibatida ular vayronaga aylanib, faqat qoldiqlari saqlanib qolgan.

III asrda Tuproq qal'aning serhasham saroy mehmonxonalari o'yima ganch bilan bezatilgan. Varaxsha shaqarchasida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan va eramizdan avvalgi IIIò IV asrlarda ishlangan ganch o'ymakorligi na'munasi topilgan. Unda o'simliksimon naqshlar, palmetta, geometrik shaklli naqshlar

ganchdan ishlangan. Ayniqsa goreleflı ishlangan baliq tasvirida oʻyilgan ganch naʼmunasini koʻrsatish mumkin.

Varaxshadagi topilmalardan VIIò VIII asrlardagi Buxoro saroyi qoldiqlaridan naʼmunalar topilgan. Bu topilmalarda qushlar, hayvonlar, baliqlarni, oʻsimliksimon va geometrik shakllarning oʻyma naʼmunalarini koʻrish mumkin. Oʻrta Osiyoni arablar bosib olgandan keyin islom dini hukmron boʻlib qoldi, u tirik mavjudotni tasvirlashni taʼqiqladi. Buni Oʻrta Osiyodagi arxitektura yodgorliklaridan koʻrish mumkin. Xususan VIIò VIII asrlardagi hukmdorlarning Varaxshadagi saroylarida bu sanʼatning xilma-xil naʼmunalari saqlangan.

Buxorodagi Ismoil Somoniylar maqbarasida ganch oʻymakorligi naʼmunalarida toʻlqinsimon ishlangan naqshlar topilgan. Unda oʻsimliksimon naqshning islimi turi koʻp ishlatilgan.

Xò XI asrlarda naqqoshlik, yogʻoch, tosh va ganch oʻymakorligi yanada rivojlandi. Murakkab abstrakt tasvirni aks ettiradigan naqshlar paydo boʻddi. Ganch oʻymakorligi ishlari uyning ichki va namgarchilik tegmaydigan tashqi qismiga ham qoʻllanilgan. Har xil geometrik shaklli qilib gʻisht terish rivojlangan. Afrosiyobda arxeologik qazishmalar natijasida Xò XI asrlarda ishlangan saroylarning qoldiqlari topilgan. Ayniqsa izora (pachel) ganchi topilgan boʻlib, unda geometrik va oʻsimliksimon naqshning chuqur oʻymalari ishlatilgan. Oʻyma chuqurligi 2ò 3 sm.gacha borgan, naqsh qoramtir soya hisobiga aniq oppoq boʻlib koʻrinib turibdi. Ganch devorga qalin qilib suvalgan, naqsh tasviri devorning sirtiga toʻppa-toʻgʻri chizilib oʻyilgak. Oʻsha davr ustalari axtadan (ulgudan) foydalanmaganlar. Binolarning tashqi qismiga esa quyma asosida ganch ishlari bajarilgan.

IIIaharda murakkab naqshlar paydo boʻladi. Ustalar tabiatdan oʻsimlik va hayvonlarning tasvirini stillashtirib, ganch oʻymakorligida ishlatganlar. Shu devorlarda oʻymaning chuqurligi 7 mm.dan oshmagan. Uylarning tashqi qismiga namoyon, ustun va peshtoqlariga ganch oʻyma

ishlatilgan. Fargʻona vodiysida XII asrda bezak sifatida har xil plitkasimon oʻyma ganch naʼmunalari ishlatilgan. Bu binolarni ganch plitalari bilan bezatish keng avj olganligini koʻrsatadi. Oʻzgan (Oʻsh viloyatida) yodgorliklari shartli ravishda shimoliy, oʻrta, janubiy deb nomlangan maqbaralarning intereri, devor peshtoqlari, ravoqlari juda ham nafis oʻyma naqshlar bilan ishlangan. Mavorounnahrda ganchkorlik sanʼati, ayniqsa ravnaq topgan, meʼmorchilikning asosiy bezagi darajasiga koʻtarilgan. Unda fantastik hayvonlarning tasvirini koʻrish mumkin.

Termiz maqbaralaridagi ganch oʻymakorlik sanʼatini oʻsha davrning yuqori choʻqqisi desa boʻladi. XII asrda muqarnaslar (stalaktitar) hosil boʻladi va koʻpgina binolarda qoʻllanila boshlanadi. Muqarnaslar oddiy ganch oʻymakorligidan farq qilib, ancha murakkabdir. U taxmon va boshqa joylarda bezak sifatida qoʻllanila boshlandi. Binolarning ichki qismlariga ishlangan muqarnaslar ayniqsa ajralib turadi.

XIII asrda ganchkorlik sanʼati yanada yuksaldi. Bunga Afrosiyobda topilgan ajoyib ganch oʻymakorligi ishlari misol boʻla oladi. XIV–XVIII asrlarda ham binolarning ichki tomonlarini bezatishda ganchkorlik sanʼatidan foydalanilgan. Bu davrlarda yangiyangi naqshlar yaratildi. Binolarda ganch oʻymakorligi, uzviy bogʻlangan koshinlar va toshdan yasalgan bezaklar keng ishlatila boshlandi. Koshin va toshdan oʻyilgan bezaklardan foydalanish natijasida ganchkorlik asta-sekin minoralarning ichki qismiga qoʻllaniladigan boʻldi. Uning tashqari qismida esa juda kam qoʻllanildi. Ganch oʻymakorligida mashhur boʻlgan XVIII asr ustasi Usta Mulla Obid, uning farzandi Muhammad Muso otasining kasbini qunt bilan egallab, oʻsha vaqtda xalqqa tanilganlardan. Muqammad Muso oʻgʻollari Madusmon, Isoxon va Yusufalilar ganchkorlikda bir qancha vaqt ishlashgan, gʻisht terishda ham obroʻ qozonishgan.

Ganchkorlikning gullab yashnagan davri XVIII asrning oxiri–XIX asrning boshlari boʻldi. Uning uslublari, texnikasi ancha murakkablashdi.

Ganch oʻymakorligining barcha turlari rivojlandi. Qurilgan binolarda xalq ustalari yorqin jilvali boʻyoqlar bilan ganchga jilo berdilar. Bezaklarning hamma turlariga xos aniq kompozitsion qonunlar ishlab chiqildi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Fargʻona vodiysi va Xivada oʻziga xos mustaqil maktablar vujudga keldi. Ganch oʻymakorligi texnikasi kishini qoyil qoldiradigan darajada oʻtdi. Buxoro bezaklari mayin, gullari juda ham nafis, Margʻilonning guldor bezaklari yaxlit koʻrinishga ega. Toshkentniki esa qatʼiy va aniq ritm asosida tuzilgan, Xivaning dinamik oʻyma naqshlari oʻziga xos spiralsimonligi bilan farqlanadi, XIX asrning boshlarida buyuk ganch oʻymakorlaridan Abdurahim hayotov, Usta Murod, Usta Fuzayl, Usta Nosir, Usta Hayot Nosirov, Usta Xoji Xofiz, Usta Nasrulloboy, Usta Abdujalil, Usta Azim, Usta Omonullo, Usta Qofir, Usta Ibrohim, Usta Sari, Usta Abdufattoh va boshqalar faoliyat koʻrsatdilar. Asr boshlaridagi ishlarda esa oʻyma relefli juda mayin uslub texnikasi paydo boʻldi. Rangli ganchlar, boʻyoqlar, naqsh va tasvirlar qoʻllaniladigan boʻldi. Boylar, amaldorlar, xonlar oʻzlariga saroylar, bogʻlar va qasrlar qurdirib, ularni oʻyma ganch bilan bezattirdilar. XX asrning boshlarida diplomat amaldor A.Polovsev Toshkentda yashardi. U Turkiston arxeologiyasi havaskorlari toʻgaragiga aʼzo boʻlib, sharq madaniyatiga juda qiziqar edi. Shuning uchun u oʻziga yevropacha uy qurdirdi. Bino baland ayvon, mehmonxona, yotoqxona va boshqa xonalardan iborat edi. A. Polovgʻev oʻzbek xalqi sanʼatini yaxshi biladigan etnograf M.S.Andreevni bezak ishlariga boshliq qilib tayinlaydi. U oʻzbek xalqi sanʼati naʼmunalarini yigʻib, ularni oʻrganishga hayotini baxshida etgan ajoyib etnograf olim edi. Bu binoni bezashga Toshkentdan tashqari Qoʻqon, Buxoro, Fargʻona va boshqa shaharlardan ganch oʻymakorlar, yogʻoch oʻymakorlari va naqqoshlar taklif qilindi. Shular jumlasidan Usta Shirin Murodov, Usta Arslonqul Nazarov, Usta Usmon Ikromov, Toshpoʻlat Arslonquyuv va boshqa ganch oʻymakorlar ham bor edi. M.S.Andreev ganchkorlik ishlarini ustalarga taqsimlab berdi, chunonchi "Toshkent ustalariga mehmonxonaning sharqiy va shimoliy

devorlari, tokcha, gʻarbiy va janubiy devorlarni bezatish Buxoro ustalariga topshirildi. 1902ò 1903 yillarda yevropacha qurilgan uy oʻzbek miliy bezagida pardozi qilindi. Binoning ayvon, katta zali va yotoqxonasi juda jim-jimador qilib bezatilgan. Ayniqsa, Toshkent ganchkorlarining ishlari oʻziga xos harakterda boʻlib, oʻyma naqsh kompozitsiyasida katta shoh barg va toʻp barglar yirik jim-jimador qilib bezatilgan. Bu yerda pardozning hamma turlari qoʻllanilgan. Devorlarga oʻyilgan ganch oʻymakor namoyonlar vertikal hamda gorizontal joylashtirilgan, atrrifi geometrik, mayda ensiz zanjira, islami hoshiya naqshlar bilan bezatilgan. Namoyonlar xuddi yuqoriga qarab oʻsayotgan tabiat oʻsimliklarini eslatadi. Pardoz turlari xonaga tushayotgan yorugʻlik hisobiga juda oʻrinli tanlangan. Derazadan tushgan yorugʻlik oʻymani yanada badiiylashtirgan. Namoyonga nazar tashlab turgan kishi xoh uzoqdan, xoh yaqindan qaramasin, u oʻziga xos jozibaga ega ekanligini koʻradi. Albatta, ustalar bularni avvaldan hisobga olganlar. Namoyonlar xuddi goʻzal tabiat manzarasining nafis tasvirini eslatadi. Uyma ganch zaminlari ajoyib ranglarda berilgan. Bu bino XX asrning boshlaridagi eng koʻzga koʻringan arxitektura yodgorligi boʻlib qoldi.

1913ò 1914 yillarda Buxoroda amir Aqadxon tomonidan Sitorai Mohi-Xosa qurildi. U ganch oʻymakorligi bilan bezatildi. Ayniqsa oq uy mehmonxona) oʻsha davrdagi ganch oʻymakorligining ajoyib naʼmunasi desa boʻladi. Bunda oyna zamiida ganch oʻymakorligi bajarilgan. U oʻzining nozikligi, jim-jimador qilib bezatilishi bilan ajralib turadi. Mazkur saroyning bezak ishlarini Usta Shirin bajargan. U oʻsha davrda eng koʻzga koʻringan ganchkor ustalardan edi.

Oʻzbekistonda ganch oʻymakorligi sanʼatining rivojlanishi

Oʻzbekistonda osori-otiqalarni saqlash muassasalari Samkomstaris, Turkkollstaris, Sredazkomstaris, Uzkomstaris yodgorliklarni hisobga olish, oʻrganish taʼmirlash boʻyicha katta ishlarni boshlab yubordi. Koʻpgina arxitektura yodgorliklarini, meʼmor, sanʼatshunos olimlar va ustalar qayta

tiklash, ta'mirlash ishlarini boshlab yubordilar. Arxitektura yodgorliklarini tiklashda ganch o'ymakor ustalar o'z kuchquvvatlarini ayamadilar.

1918 yili Turkiston jumhuriyatida «hunarmandlar bo'limi» tashkil etildi. Bu bo'limning maqsadi hunarmandchilik bo'yicha izlanishlar olib borish, iqtisodiy statistik ma'lumotlarni qayta ishlab chiqish, ishlab chiqarishga tarqatish, maktablar tashkil qilish, o'quv ustaxonalarini tashkil etish, muzeylar, hunarmandlar birlashmasi (arteli) tashkil etish, qo'lda ishlangan ishlarga mablag' ajratish va boshqalar.

1918ò 1920 yillarda hunarmandlar komiteti Toshkentda o'lkashunoslik hunarmandlar tashkiloti, o'quv na'munaviy ustaxonalar va hunarmandlik ishlari bo'yicha muzey tashkil etdi. O'quv na'munaviy ustaxonasida xalq amaliy san'ati turlari duradgorlik, gilam to'qish, gazlama to'qish, kulolchilik, charm ishlash, naqqoshlik, ganchkorlik va hokazolar bo'yicha instruktor tayyorlash kerak edi. Muzeyni tashkil qilishdan maqsad eng yaxshi hunarmandchilik ishlarini sotib olib yig'ish va saqlash edi. 1918 yilda Samarqandda 25 aprel 1919 yil Butunittifoq badiiy maktabi tashkil etildi. 25 aprel 1919 yil Butunittifoq Markaziy Ijroiya qumitasi «hunarmandchilik ishlab chiqarishini rivojlantirishga doir tegishli choralar ko'rish» haqida dekret qabul qildi. Bu dekretda hunarmandchilik buyumlarini bemalol yasab sotishga ruxsat etiladi. Moskvada 1923 yilda Butun ittifoq qishloq xo'jalik ko'rgazmasining Turkiston pavilonida ganch o'ymakorlar, naqqoshlar, yog'och o'ymakor ustalar ajoyib ishlari bilan qatnashib ko'pchilikka manzur bo'ldilar.

1925 yili «O'zpromsoyuz» tashkil etildi. Uning maqsadi tashkil etilgan hunarmandchilik artellariga rahbarlik qilish va yangi artellar ochish edi. 1930 yilda Samarqandda hunarmandchilik ishlab chiqarish texnikumi ochilib u yerda xalq amaliy san'ati turlari bo'yicha ko'pgina ganch o'ymakor ustalar, naqqoshlar, kulollar va boshqa ustalar yetishib chiqdi. O'zbekiston hunarmandlari o'z ishlari bilan 1925 yilda Parijda keyin Leypg'igda, 1927 yilda jahon bo'yicha, 1937 yilda Parijda «San'at va texnika qozirgi kunda» degan

koʻrgazmalarda ikkita «Gran pri», ikkita kumush medal va bitta oltin medal bilan mukofotlandilar. Bu Sovet hukumatining oʻsha vaqtda xalq amaliy sanʼatiga boʻlgan katta gʻamxoʻrligi edi. 1939 yilda Nyu-Yorkda «Mir budushego» koʻrgazmalariga ham Oʻzbekiston xalq amaliy sanʼati ustalari qatnashib diplom oldilar. Ganchkor ustalar arxitektura yodgorliklarini; murakkab muqarnaslarni, nozik ganch oʻyma ishlarini qayta tikladilar. Ular Minorai Kalon (XII asr), Magoki Attor machitini, (XII asr), XVII asrda qurilgan Sherdor, XVII asrda qurilgan Abdulazizxon madrasasini va shunga oʻxshash arxitektura yodgorliklariga qayta hayot baxshida etdilar. Bu murakkab ishlarda jumhuriyatimizdagi ganchkor ustalar oʻz kuchi, quvvati va bilimini ayamadi. Oʻlar buxorolik ganch oʻymakorlar ò Usta Shirin Murodov, Shoir Ibodov, Abdurahim Hayotov, Samarqandlik Rashid Jalilov, Shamsiddin Qofurov, Abdurashid Jalilov, Akrom Umarov, Mirhomid Yunusov, Abdurayim Shermuhamedov, Toshkentlik Arslonqul Nazarov, Toshpoʻlat Arslonqulov, Mahmud Usmonov, Oʻsmon Ikromov, Xivalik Odamboy Yoqubov, Odamboy Bobojonov, Abdulla Boltaev, Roʻziyat Masharipov, Namanganlik Usta Madalixon Xusanov, Usta Akbarov; Qoʻqonliklardan ò Usta Saidaxmad Mahmudov, Muhammadjon Qosimov va boshqa koʻpgina kamtarin ganch oʻymakorlar oʻz kuch va gʻayratlarini ayamadilar.

1938 yili Moskvadagi xalq xoʻjaligi yutuqlari koʻrgazmasidagi Oʻzbekiston pavilonlarini Buxorodan, Toshkentdan, Fargʻonadan, Xivadan ganch oʻymakorlar, yogʻoch oʻymakorlar va naqqoshlar qurdilar va bezadilar. U yerda birinchi boʻlib ganch qandil namoyish qilindi. Bu ajoyib ganch oʻymakorligi sovet xalqini juda hayratga soldi. haqiqatdan ganch oʻymakorlik sanʼati Oʻzbekistonda oʻziga xos milliy anʼanaga ega. Kishilarni ganch oʻymakorlik sanʼatiga boʻlgan hurmati yanada oshdi.

1939 yili samarqandlik va buxorolik ustalar Toshkent shahar Navoiy koʻchasidagi «Muzkomediya» teatri binosini ganch oʻymakorligi bilan bezadilar. Bu binoni bezashda Usta Shirin Murodov, usta Shamsiddin

Qofurov, usta Abduraqim Hayotov va boshqalar qatnashdilar. Ustalar binoning ichki va tashqi qismlarini namoyon, panjaralar, ustunlar va boshqa joylarini ajoyib ganch o'ymakorligi bilan bezadilar.

O'zbekiston vazirlar mahkamasi binosining ganch o'ymakorlik ishlarini Toshkentlik Toshpo'lat Arslonqulov bezadi. Yevropacha usulda ustunlarning yuqori qismini, namoyonlar, ruta, zanjira, sharafalar bilam bezadi. Ulug' Vatan urushi vaqtida ham O'zbekistonda hunarmandchilik ishlab chiqarish korxonalari ishlarini davom ettiraverdi. hukumat shunday og'ir kunlarda ham xalq hunarmandchiligiga katta e'tibor berib ko'pgina qarorlar chiqardi. O'quv kombinatida ustalar tayyorlash davom ettirildi, O'sha davrdagi eng og'ir kunlarda Beshyog'och maydonida Muqimiy nomli teatr qurildi. Bu binoni qurilishiga Marg'ilonlik usta me'mor O'zbekiston Fanlar Akademiyasining faxriy a'zosi Yusuf Ali Musaev boshchilik qildi (12-rasm). Teatr binosini bezashda buxorolik Usta Shirin Murodov, samarqandlik Quli Jalilov, toshkentlik Mahmud Usmonov, Usmon Ikromov, Shamsiddin G'ofurov, arxitektor Obid Zaynutdinov va A.A. Sidirovlar, rassom R. A. Akbalyan va boshqalar qatnashdilar.

Toshkentda 1947 yilda g'olabaga bag'ishlab me'mor A.Muxamedshin boshchiligida Kurant binosi qurildi. Bu qurilishni bezashda Usta Shirin Murodov qatnashdi. U naqsh kompozitsiyalarini yuqori badiiylik bilan o'yi bajardi. Ganch o'ymakorlik ishlari butun bino arxitekturasiga juda mos tanlangan. Kurant binosining sharafa, ustunlari, panjaralari o'yima ganch bilan bezaldi. Sharafaning «Muqarnas» va «Iroqi» turlari bajarildi. har bir panjaraga alohida kompozig'ya chizilib atroflariga moslab zanjira hoshiya berildi. O'zbekiston me'morchiligiga katta xazina bo'lib qo'shilgan O'zbekiston Davlat opera va balet katta teatri 1947 yili akademik arxitektor Aleksey Shusevning loyihasi va rahbarligi ostida qurib bitkazildi. Jahonga tanilgan arxitektor o' Korbezenni yetishtirgan Fransiya Aleksey Shusevning nomini ham yaxshi biladi. Chunki u 1897 yilda Parij akademiyasining musavvirlik sohasi bo'yicha talabasi bo'lgan

1933 yilda Toshkentda quriladigan teatr binosining eng yaxshi loyihasi uchun Butun ittifoq konkursi eʼlon qilingan, bu konkursda Aleksey Viktorovich Shusev tavsiya etgan loyiha eng yaxshi deb topildi. 1940 yilda teatr binosining qurilish ishlari boshlanib 7 yilda bitkazildi. A. V. Shusev 1894 yillarda qadimiy Sharq meʼmorchiligi bilan tanish edi. U Oʻrta Osiyo boʻylab oʻtkazilgan arxeologik ekspeditsiyalarda qatnashdi, Temur davrida qurilgan yodgorliklarni sinchiklab oʻrgandi. Oʻsha paytda u Sharq, qeshining tiqqi ostida tovlanib koʻzga tashlanadigan arxitekturani quradi Teatr binosi arxitekturaga, ana shu yodgorliklarga boʻlgan muhabbati, bilimi juda ham qoʻl keldi. Ulugʻ oʻzbek mutafakkir shoiri Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi yubileyining tantanalari shu tadbirga qoʻshilib ketdi. Xuddi oʻsha kuni teatrga mutafakkirning nomi berildi. Teatr binosini zamonaviy estetik talablarga asoslanib oʻzbek milliy anʼanalarini saqlagan holda xalq hunarmandustalari buni etdilar. Teatrning bezak ishlariga barcha shaharlardan ustalar, naqqoshlar, rassomlar, ganchkorlar, toshtaroshlar va boshqalar kelishdi. Bezak ishlarida Akademik Shusev eskizi boʻyicha teatrning fasadi, (tashqi koʻrinishi) eshikdan kiraverish joyi (foesi) va tomosha qilish zali (mehmonxonasi)ni T. Arslonqulov bajardi Teatr binosining 3qavatida 6 ta yeng zal (mehmonxona)lari bor edi. Shusev Oʻzbekiston viloyatlaridagi ganchkor ustalarni bir joyga yigʻib, ular oldiga ikki muhim masalani qoʻydi. Birinchisi har bir viloyatning oʻziga xos milliy uslubi asosida bezash, ikkinchisi oʻ bezalgan xona teatrning arxitektura badiiy obraziga mos tushishi kerakligi haqidagi masalani qoʻydi. Bu Xiva, Termiz, Samarqand, Fargʻona, Buxoro va Toshkent zallaridir. Bulardan, Xiva va Termiz zallari qadimda ishlatiladigan ganchkorlik uslubida bezatilgan. Buxoro, Toshkent, Fargʻona va Samarqand zallari esa zamonaviy xalq anʼanasiga mos boʻlgan ganch oʻymakorligi bilan bezatilgan

Xiva zali oʻ (arxitektor S.N.Polupanov) Xiva zalidagi ornament naqsh andazalarini davlat mukofoti laureati Abdulla Boltaev chizgan.

Ganch oʻymakorlik ishlarini xivalik ustalar o S. Xudoyberganov, K.Polvonov, B.Bobojonov, Roʻzimat Masharipov va uning shogirdlari S.Qalandarov, Sh.Ibrohimov, S.Qodirov, Avazov kabi ustalar milliy badiiy bezashda qatnashdilar. Ular bezagan oʻyma ishlar kishi qalbiga orom va quvonch bagʻishlaydi.

Xiva zali qadimda ishlatiladigan ganchkorlik uslubida bezatilgan. Xiva zalidagi bezaklar medalyn shaklida qilib oʻyilib, xuddi Xivadagi moyolik (koshin)ga oʻxshab ketadi. Bu oʻyma uncha chuqur boʻlmay juda mayda oʻyilgan, xuddi yogʻochdan oʻyilganga oʻxshaydi. Naqsh kompozitsiyasining tuzilishi spiralsimon, oʻziga xosligi bilan ajralib turadi. Umumiy naqsh kompozitsiyalari shakldor medalonlarni takrorlanishidan hosil boʻlgan uzoqdan ajoyib namoyon koʻrinishiga ega.

Termiz zali o (meʼmor A.Zaynutdinov.) Bu zalning naqsh kompozitsiyalarini Usta Shirin Murodov Termiz stiliga moʻljallab chizgan. Oʻyma ishlarini Usta Shirin Murodov, Q.Neʼmatov va boshqalar bajarganlar. Termiz zali qadimiy ganchkorlik uslubida bezatilgan boʻlib, XII asr Termiz saroyidagi ganch oʻymakorligini eslatadi. Teatrda kirgan odam Oʻrta asr bezash stilini shu teatrda uchrashini xayoliga ham keltirmaydi.

Termiz zalida zamonaviy uslubdagi hech narsani koʻrmaymiz. Oʻyilgan naqsh zamini umum yuzaning 10o 30% ni tashkil etadi chuqurligi 10o 20 mm. Uyilgan naqshlar qoramtir tusda soya berib, oʻyilmagan yuzani aniq kontrast qilib koʻrsatib turibdi. hoshiya va izoraga ishlangan naqshlar foni 10o 20% ni tashkil etib, naqsh kompo. Qiyalari birbiridan farq qiladi. Namoyon cheti ozgina boʻsh qoldirilib atrofiga rutilangan. Ruta foni namoyondagi fonga nisbatan kam oʻyilgan. Bu namoyonga qaraganda ruta oqishlar boʻlib namoyon kompozitsiyasining koʻrkini yanada ochgan.

Fargʻona zalm o (meʼmor B.N.Zasipkin). Ganch oʻymakorligi va naqsh kompozitsiyalarini Qoʻqonlik Saidmahmud Norqoʻziev bajargan.

Oʻymalariga Jalil Marasulov va koʻpgina Fargʻona ustalari qatnashishgan. Fargʻona zalining shiti qoburgʻali qilib ganch oʻymakorligi kompozitsiyalari bilan bezatilgan. Bu Fargʻona vodiqidagi anʻanaviy badiiy uslubni eslata, Sharafa biroz qoʻpolroq qilib stillashtir yuborilgan. Sharafani yuqori qismiga geometr naqshlar panjaraga oʻxshatib ishlangan. Na kompozitsiyalari choka pardozda bajarilgan.

Samarqand zaliò (meʼmor S.N.Polupans Ganch oʻymakorligi ishlari kompozitsiyalar davlat mukofoti laureati Quli Jalilov va bajargan. Bu zal sharafa kompozitsiyalarini, geometrik ornamentlarni, namoyon, zanjira kompozitsiyalarining ajoyib namunlari ishlangan. Shiftga geometrik naqsh gir oʻyilib oralariga oʻyma islimi naqsh bajarilgan. Shift atroflariga yulduzsimon hovuzlar va oʻrtasiga murakkab geometrik naqshlar oʻyilgan. Devorning yuqori qismiga iroqi sharafa bajarilgan. Keng toʻrtburchak shaklidagi gilamga, yaʼni Samarqanddagi soʻzanaga oʻxshab ketadi. Namoyon atrofida boʻsh joylar qoldirilib baʼzilarga ruta oʻyilgan. Bu boʻshliqlar kompozitsiyaning yanada badiiylashtirib xonaning koʻrkamligiga yana koʻrk bagʻishlaydi. Qandillar sakkiz qirrali qilib oʻyilgan.

Buxoro zali ò Bu zalning naqsh kompozitsiyalarini va oʻymalarini Usta Shirin Murodov bajargan. U buxorocho milliy va zamonaviy uslubni qoʻllagan. Uning oyna zaminli ganch oʻymakorligi xonani yanada keng qilib koʻrsatadi. Unda ajoyib va murakkab sharafalar, qandillar, namoyonlar kishi diqqatini oʻziga tortadi. Keksa usta Shirin Murodov buxoroliklarga xos «tabaqa pardoz» deb ataladigan murakkab uslubni bizgacha yetkazib kelib Buxoro zalida oynai jahon qurdi. U ajoyib qandil ishlab uyning shiftiga qubbali qilib muqarnas ishladi. Shift oʻrtasiga oʻsha davrgacha hech kim stalaktit ishlatmagan edi. Murakkab muqarnaslar xona hajmiga mos tushgan. hajmli oppoq geometrik shakllar kishiga qandaydir erkinlik his tuyQusini beradi. Deraza koʻzgu zaminli namoyonga tushayotgan yorugʻlik xonaga yanada keng, yorugʻ va oʻziga xos joziba baxsh etadi.

Toshkent zali (mehmonxonasi)ò Toshkent zaliga Toshpođat Arslonqulov kompozitsiya chizdi. Guldasta, sharafa, namoyon, rutalar yuqori relefli qilib bajarildi. Toshpođat Arslonqulov ođyma naqsh solish texnikasi, «muqarnas», «majnuntol», «choka pardoz», «zanjira», «shohbarg» kabi uslublarni amalda qođlab, taraqqiy ettirish bilan birga «chor burchak», «quvacha islimi», «palak islimi», «paxta chanogā islimi» kabi kompozigāyalarni bezadi. Toshpođat Arslonqulov zalda zamonaviy ganch ođymakorligini bajarib, uning har bir kompozigāyasi tantanaviy dinamik qilib ishlangan. Pardozning rang-barangligi boshqa viloyat naqshlaridan farq qiladi. Uymalar aniq, kođkam yaxshi kođrinishga ega. Usta islimi naqshdan kođp foydalangan.

Sanōat turlari asrlar, yillar davomida bir tekisda taraqqiy etmaganligini kođrish mumkin. 50yillarda «ortiqcha hashamga» qarshi kurash boshlangan. Binokorlikda xalq amaliy sanōati sigāishmaydi, degan kishilar topildi. Ular binoga nima kođk, hasham, estetik zavq uygōotsa shular ortiqcha deb topildi. Natijada binolar hech qanday bezaksiz tođrtburchak qilib qurila boshlandi. Ganch ođymakor ustalar ođz kasblarini tashlab boshqa sohalarga ođtib ketishdi. Oōsha kezlarda Usta ganchkor Mahmud Usmonov ođz kasbini tashlamasdan Lenin va N. Ostrovskiy nomli ođquvchilar saroyida ganch ođymakorligi tođgaragini davom ettirdi. 1953 yili Mahmud Usmonov iltimosi bilan Toshkent shahridagi P.Benkov nomli jumhuriyat badiiy ođquv yurti qoshida xalq amaliy sanōatining bir necha bođimlari, shu jumladan ganch ođymakorligi bođimi ham ochildi. Bu ođquv yurtiga Davlat mukofoti laureatlari Usta Shirin Murodov, Usta Toshpođat Arslonqulov va Mahmud Usmonovlar ođymakorlik sirlarini yoshlarga ođrgatdilar. 1957 yili Usta Mahmud Usmonov qirqqa yaqin shogirdlari bilan Buxorodagi Sitorai Mohixosa saroyidagi ganch ođymakorlik ishlarini qayta tikladi. 1961 yili A.Navoiy nomidagi katta Akademik opera va balet teatrining ganch ođymakorligi bezaklari qayta tiklandi.

1966 yili Toshkent zilzilasi oqibatida ko'pgina uylar vayron bo'ldi, arxitektura yodgorliklari shikast yedi. Ularni qayta tiklashda ganch o'ymakor usta Mahmud Usmonov o'z shogirdlari bilan qatnashdi. 1967 yili O'zbekiston Ministrlar Soveti binosining ganch o'ymakorligini M.Usmonov bajardi. Zal bezagi uchun usta ikki xil nusxa tayyorladi, ulardan biri raxli, ikkinchisi qo'sh qavatli girihlardan foydalandi. U ustunlarga pargori islami naqshni qo'llab ajoyib asar yaratdi. Bu binoni bezatishda pax pardozdan foydalangan.

1967ò 1968 yillarda hamza nomidagi Davlat Akademik drama teatri binosining ichki qismi ganch o'ymakorligi bilan bezatildi. M. Usmonov bu binoda ganch o'ymakorlik turlari qirmadan, choka va tabaqa pardozlarni qo'llagan.

1968 yili O'zbekiston Markaziy komiteti ma'muriy binosining ichki qismiga ganch o'ymakorlik bezaklarini M.Usmonov bajardi. Bu binoda u ganch o'ymakorligining ajoyib na'munalarini ko'rsatdi, ayniqsa «Xalqlar do'stligi» kompozitsiyasi na'munali chiqqan. Bu namoyonda qardosh sovet xalqlarining do'stligi badiiy ifodalar xuddi chamanzordagi bog'larni shu qatori ramziy naqshni o'ta mohirona bajargan. Unda faqat nisbiylik hisobga olinmagan, lekin o'ymaning dinamikligiga katta e'tibor berilgan. Bu binoda choka va qisman pax pardoz qo'llanilgan. 1968 yili O'zbekiston qishloq xo'jalik ministrligi binosi ganch o'ymakorligi bilan bezatildi. Buni ham M.Usmonov bajardi. Bu yerda o'yma naqsh 1,5 sm chuqurlikda o'yilib choka pardoz berilgan. Ayniqsa, islami naqshlarning nafisligi va dinamikligi kishini o'ziga maftun etadi.

1968 yili Alisher Navoiy nomli Adabiyot muzeyining geometrik va o'simliksimon ganch o'ymakorligi kompozitsiyalarini bajardi. M. Usmonov bu binoni choka pardoz, ayrim joylarini pax va tabaqa pardoz qilib bezagan. Ganch o'ymakorlik bilan Markaziy Komiteti ma'muriy binosi, Markaziy univermag, Buxoro konsert zali, Toshkent markazidagi yangi qurilgan Lenin haykali tribunasi tagidagi zallar va binolar ganch o'ymakorligi bilan bezatildi.

1969ò 70 yillarda Samarqanddagi aeroport, Registon maydonidagi restoran binolari, Toshkent filiali ganch o'ymakorligi bilan bezatildi. 1980 yili Mahmud Usmonov hamza hakimzoda Niyoziy nomidagi Toshkent San'atshunoslik instituti binosida o'yma ganch ishlarini bajardi. Naqsh kompozitsiyalari chizmalarini 3.Bositxonov bajargan. U yerda Xiva, Buxoro, Termiz va Toshkent uslublari mavjud. Keyingi yillarda ganch o'ymakorligining noyob asarlari va ularni yaratgan ustazodalar haqida san'atshunos olimlar Rempel L.I., Notkin I.I., Priga I., Morozova A.S., Zoxidov P.Sh., 3.Bositxonov va boshqalar risolalari bilan ganch o'ymakorlik sirlarini ochib, tadqiqot ishlarini olib bordilar va olib bormoqdalar.

O'zbekistonda xalq amaliy san'ati turlari rivojlanib bormoqda. hozirgi zamonaviy binolar, uylar ganch bilan bezatilmoqda. Shu paytgacha ganchkorlik san'ati na'munalarini xalq amaliy san'ati muzeyida badiiy ko'rgazma zallarida, madaniy va maishiy xizmat ko'rsatish binolarida uchramiz. Chunonchi temir yo'l vokzali, aeroport binolarida, mehmonxonalarda, muzeylarda, choyxona, kafe, restoranlar, teatrlar fabrika va zavod, kolxoz va sovxoz klublari va idoralarida, o'quvchilar uyi va saroylarida, maktablarda, sirk binolarida, hattoki xonadonlarda ham mohir ustalarning ganch o'ymakorlik na'munalarini ko'ramiz. Ganch o'ymakorlik san'ati tez sur'atlar bilan taraqqiy etib bormoqda. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda yoshlarga bosh-qosh bo'lib kelayotgan O'zbekiston xalq rassomi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, O'zbekiston Lenin komsomoli mukofoti laureati, Hamza nomidagi Uz.Davlat mukofoti laureati, eng ko'zga ko'ringan usta Mahmud Usmonov ganch o'ymakorligi bo'yicha katta ishlar qilib kelyapti. O'z ganchkorlik san'atini rivojlantirishga katta hissa qo'shib, uni yangi uslublarni boyitib bormoqda, iste'dodli shogirdlar yetishtirib chiqarmoqda. Mahmud Usmonovning qobiliyatli shogirdlarining ishlari faqatgina Hindiston, Polsha, Yaponiya, Amerika va boshqa chet el shaharlarida ham namoyish etilmoqda.⁴

⁴ Bulatov. S.S.O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent.1991 yil.

Ganch oʻymakorligi turlari. Har qanday binoni bezashda avval uning tuzilishiga mos ganch oʻymakorligi turini tanlash, qoʻllash oʻz-oʻzidan muhim ahamiyatga ega. Kichik xonaga mayda tekis oʻymakor va unga mos boʻlgan pardoz turi, katta mehmonxonalarga (zallarga) esa yirik yoyma va oʻziga xos ganch oʻymakorligi qoʻllaniladi. Ganch oʻymakorligi, yirik oʻyma, chuqur oʻyma, yassi oʻyma, qirma, zamini koʻzguli oʻyma, zamini rangli oʻyma, chizma pardoz, panjarasimon oʻyma, zanjira, hajmli oʻyma turlaridan iborat. Bundan tashqari, ganch oʻymakorligi turlari zaminli va zaminsiz oʻymalarga boʻlinadi.

Zaminli oʻyma yirik oʻyma binolarning fasadlari (tashqi tomoni) ni va katta mehmonxonalarni bezatishda qoʻllaniladi. Oʻyma relefining chuqurligi 2ò 3 sm boʻladi. Oʻyma zamini butun yuzaning 15ò 30% ni egallaydi. Oʻyma ganch qora fondga oppoq, faqat soyasi qopqora yaxlit boʻlib koʻrinadi.

Yirik oʻyma naʼmunalari qadimdan ishlangan boʻlib, Termiz (IXò X asr), Samarqand (X) va boshqa shaharlardagi oʻyma ganch naʼmunalari dalil boʻla oladi. Hozir esa binolarning katta xonalari va baʼzi birlarining tashqi tomonifasadi ganch oʻymakorligi bilan bezatiladi. Ganchkorlikda hajmli ò barelefli, haykalsimon, muqarnaslar, qubba, qosh va boshqalar ishlatiladi. Bular hajmli oʻymalar deyiladi. Ularni oʻyib ishlanadi.

Eng koʻp qoʻllaniladigan oʻyma yassi oʻymadir. U intererda koʻp qoʻllaniladi. Albatta katta boʻlmagan xonalarda. Oʻymaning chuqurligi 1ò 1,5 sm boʻlib, unga har xil pardoz turlari beriladi. Oʻyma naqshning zamini umumiy yuzaning 30-60%ni egallaydi. Oʻnga joyiga moslab pax pardoz, choka pardoz, loʻla yoki tabaka pardoz beriladi.

Qirma pardoz - X asrlardan boshlab ishlatilgan. U Buxoro va Samarqand shaharlarida XVI asrda juda keng qoʻllanilgan. Uni, ayniqsa Buxoro ustalari yaxshi bilganlar. Qirma binolarning interer va ekstererida ham keng qoʻllanilgan.

Qirma ò oʻyilgan joylarni rangli ganch qorishmasi bilan toʻldirishdir. Qirma ikki turga boʻlinadi, birinchisi tekis yuzali qirma, ikkinchisi relefli

qirma. Tekis yuzali qirma o' xuddi devorga grafik usulida bajarilgan naqshga o'xshab ko'rinadi. Bu qirmada zamin ma'dum chuqurlikda chaqa qilib chiqilib, gullar oralig'i qaytadan rang aralashmali ganch bilan to'ldiriladi. Uning yuzasini shuturgardan (tuya bo'yoq) va andavada qirib tekislab chiqiladi. Bunda rangli tekis yuzali gullar hosil bo'ladi, buni tekis yuzali qirma deyiladi. Relefli qirmada esa yuqoridan tekis yuzali qirmani davom ettirib, gul va novdalarga o'yoq, choka pardoz beriladi. Qirmani ham o'ziga xos xislatlari bo'lib, u ko'p rangni xohlamaydi.

O'yma zaminini ko'zgu tashkil etgan ganch o'ymakorligining oynavandlik turini XIX asrda Buxorolik Usta Shirin Murodov yaratgan. U birinchi bo'lib Buxoro xoni Ahadxonning «Sitorai Mohixosa yozgi saroyidagi «oq uy» (xonai safed) ni bezashda (1913ò 1914 yillarda) qo'llagan. U yerdagi zamini bo'lgan ko'zgu o'yma ganch ajoyib nafis ko'rishga ega.

O'ymakorlikning bu turi o'ymakorlikning boshqa turlaridan oz mehnat qilib yuqori samaradorlikka erishish bilan ajralib turadi.

Ganch o'ymakorligida o'ymani yanada badiiy va ko'rkam bo'lishi uchun o'yma zamini rangli bo'ladi.

O'yma zaminiga rang berishning ikki yo'li bor.

1. Ganch suvoq ustidan 2 mm.dan 5 mm.gacha qalinlikda rangli ganch bilan tezda suvaladi. Keyin ustidan gul o'yoq (oq ganch chiqquncha). So'ng uni shundoq qoldiriladi yoki pardoz turlari beriladi. Rangli ganch tayyorlashda quruq bo'yoqlar (pigmentlar) dan foydalaniladi.

2. Relif o'yoqdan so'ng yelim bo'yoq yoki moy bo'yoq bilan zamini mo'yoqalamda bo'yoq chiqiladi.

O'ymani rangli bo'yoqlarda bo'yoq, ayniqsa XIX asrda juda keng tarqalgan.

Chizma pardoz ganch o'ymakorligining turlaridan biri, ganch yuzasiga tushirilgan naqsh nusxasining ustidan tirnab chizib chiqishdir.

Chizma pardozi, ayniqsa yorugʻ xonalarda qoʻllaniladi. U koʻpincha, hoshiya ishlashda koʻp foydalanilib tirnalgan joyining chuqurligi 2ò 3 mm atrofida boʻladi.

Panjarasimon oʻyma binolardagi tokcha va tuynuklarni pardozlashda va qandillar tayyorlashda qoʻllaniladi. Bu oʻyma oʻymaning boshqa turlaridan farq qilib oʻyilayotgan ganch taxtaning ikkinchi tomonidan teshib oʻyib oʻziga xos pardozi turi beriladi. Panjarasimon oʻyma qadimdan qoʻllanib kelinayotgan boʻlib, Varaxsha (VIII asr) binolarida, ShohiZinda kompozitsiyasida (XIX asr), Mir Arab, Abdulloxon (XVI asr) madrasalarida uning ajoyib naʼmunalarini koʻrish mumkin.

Panjarasimon oʻyilla ornamentining tuzilishi oʻsimliksimon, geometrik va nishon tarzida boʻladi. hozir zamonaviy binolar, Muqimiy nomli teatr, xalq amaliy sanʼati muzeyi, Moviy gumbaz kafesi, metro stangsiyalari va boshqa joylarda panjarasimon ganch oʻymakorligini koʻrish mumkin.

Ganch oʻymakorligida asosiy naqsh bilan hoshiya naqshni bogʻlab turadigan naqsh bu, zanjiradir. Zanjira namoyon, tokcha, eshik, deraza, taxmonlarni, izora (panel) va boshqa joylarining chetiga ishlatiladi. U ramka vazifasini oʻtaydi. Zanjiraning eni 2ò 8 sm boʻladi. Uning naqshi geometrik va oʻsimliksimon boʻlib, geometrik zanjira koʻproq qoʻllaniladi. Zanjira sodda boʻlishiga qaramay, shakllarni oʻyganda soya, yorugʻ va yarim soya holida kishini oʻziga jalb etadi.

Zanjiraning gʻishtin zanjira, arazlagan zanjira, chashmi bulbul, qush zanjira va boshqa turlari bor.

Chuqur oʻyma binolarning tashqi tomonini, katta xonalarini bezashda qoʻllaniladi. Oʻymasining chuqurligi 2ò 3 sm boʻladi. Oʻyilganda zaminga qarab 45°ò 60° qiyalikda oʻyiladi. Ularni chuqur yoki uncha chuqur olmaslik oʻymaning hajmiga bogʻliq. Bunday chuqur oʻymalarga boʻyoq berish talab etilmaydi. Baʼzi vaqtlarda umumiy qolipga bitta rang berilishi mumkin. Chuqurlik qancha past boʻlsa, naqsh

shuncha kontrast koʻrinadi. Agar yorugʻlik oʻyilayotgan yuzaga tik tushsa unda naqsh yarim soyali mayinroq koʻrinadi. Chuqur oʻyma «yorugʻ soya oʻyini»ga boy va yaxshi koʻrinishga ega boʻladi.

Xulosa.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, barcha sohalarda bo'lganidek amaliy san'atga, shu jumladan ganch o'ymakorligini ham rivojlantirishga katta e'tibor bilan qaralmoqda. Muqaddas qadamjolarimiz hisoblangan Imom Buxoriy majmuasi, Imom Moturudiy majmuasi, Iso at-Termiziy va Al-Hakim at-Termiziy majmualarida ganch o'ymakorligining qadimgi va hozirgi usullaridan foydalanilayotganligi ham buning yorqin isbotidir.

Ganch o'ymakorligi asarlari nafaqat moddiy madaniyat shu bilan birga ma'naviy madaniyat va qadriyatdir. Muqaddas qadamjolarimizga borar ekanmiz, u yerda ma'naviy n ruhiy quvvat olamiz. Ajdodlarimiz uchun qurilgan majmualar bilan faxrlanamiz, ularga munosib voris bo'lishga harakat qilamiz. U yerdagi amaliy bezak san'atlari zavqlantiradi, estetik olamimizni boyitadi. U yerda inson ko'rganlari, bilganlari, his qilganlari kishi ongiga, ichki dunyosiga, his-tuyg'usiga ta'osir etib, ular ongini boyitadi, ahloq n odobini ezgulik sari yetaklaydi. Ko'zi bilan ko'rganlari uni go'zallik sirlaridan bahramand qilsa, qalbi bilan his qilganlari uni iymonini qo'zg'atib, e'tiqodini baquvvat qiladi va insonlarni o'z oldiga ezgu maqsadlarni qo'iyib ularni amalga oshirish uchun intilishga, harakat qilishga undaydi. Shuningdek ganch o'ymakorligi amaliy san'at sifatida inson ma'naviyati va madaniyatida samarali xizmat qiladi. Insonning botiniy va zohiriy olamiga ezgulikka, go'zallikka intilish, ahloq-odobli, did-farosatli bo'lishga hamda jismoniy va aqliy barkamol bo'lishi uchun moddiy, ma'naviy, estetik ozuqa bo'ladi. Yoshlarni mehnatsevar, tirishqoq, qobiliyatli qilib tarbiyalashda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Respublikamiz mustaqillikga erishgan kunidan boshlab boy tarixiy, madaniy merosimiz keng ko'lamda o'rganila boshlandi. Birinchi prezidentimiz I. Karimov aytganlaridek: <<Jamiyatimizdagi yangilanish va islohatlar tufayli dunyo sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib qolgan yuksak ma'naviyat ahloqiy madaniyat, chiroyli milliy an'analарimizdan foydalanish imkoniyati ochildi>>.

óAxborot texnologiyalari, matematika, fizika, kimyo, sanoat, menejment ñ bularning hammasi kerak, albatta. Lekin, avvalambor tarixni bilish ñ bu hayotiy zaruratô.

Hayotiy bilish, biz qaysi asrda yashayotganimizni anglash ñ bu hammamizning burchimiz. Yaöni, hayotdan oyogöi uzilgan, real voqeylikdan uzoqlashgan odam hech qachon öz maqsadlariga erisha olmaydi. Yerdä yashaydigan odamning shu zamin, mana shu tuproq bilan bogöliq boölishi kerak, u shu tuproqni koöziga surib, uning ertangi kunini yanada obod qilishga harakat qilib yashashi zarur.ô⁵

Demak oöquvchilarga amaliy sanöat tarixini oörgatish orqali oöquvchilar maönaviy dunyoqarashini oöstiramiz. Men ham öz faoliyatim mobaynida oöquvchilar maönaviy dunyoqarashi bilan bir qatorda, tasviriy va amaliy sanöatga boölgan qiziqishini oshirib borib, koöplab shogirdlar chiqaraman.


Men o`z bitiruv malakaviy ishimni xozirda eng muhim masalalardan biri oösib kelayotgan yosh avlod maönaviyatini shakllantirish va komol toptirishdir, shuning uchun ham men hozirgi kunda jadallik bilan rivojlanib kelayotgan, va shu bilan birga özida anänalarimizni saqlab qolgan ganch oöymakorligi sanöatini tanladim. Ganch oöymakorligi sanöati yoshlarni mustaqil fikrlashga, sabr toqatli boölishga va vatanimiz urf odatlarini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Bu esa yoshlarimiz qalbida vatanimizga boölgan mehr muhabbatni yanada oshiradi. Men öz bitiruv malakaviy ishimda ganch oöymakorligi sanöatining tarixini va bugungi kundagi zamonaviy koörinishlarini oörganishga harakat qildim. Bu davr mobaynida men shunga amin boödimki, ganch oöymakorligi sanöati tarixni va zamonaviylikni özida mujassam etgan sanöat turidir.

⁵ Karimov I.A.. Ona yurtim baxt ñ u iqboli va buyuk kelajagi yoöida xizmat qilish ñ eng oily saodatdir. ñ Toshkent, óOözbekistonô NMU, 2015. 109 - bet


FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., O'zbekiston, 1992.
2. **Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atni yanada rivojlantirishning davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 31 mart farmoni O'Xalq so'zi gazetasi. T. 1997 yil 1 aprel. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-t. T.: O'zbekiston, 1996.**
3. **Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasini - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: O'zbekiston, 2000.**
4. **Karimov I.A. Yuksak ma'naviyatni yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.**
5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. "Ma'rifat" gazetasi 1997-yil 1-oktabr.
- 6.
14. Akilova K. B. Narodnoe dekorativno- prikladnoe iskusstvo Uzbekistana XX vek. Tashkent. 2005 god.
15. Azimov I. O'zbekiston naqshu-nigoralari. T. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1987. -132 b.
16. Axmedov M. Yog'och o'ymakorligi. -T.: O'qitish-Moliya, 2007.
17. Abduqodirov A. Obidalar jilvasi. T., O'zbekiston 1972 yil 64-b
18. Bulatov. S.S.O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent.1991 yil.
19. Bulatov S.S., P.P. Shabaraton . M.A. Rasulov. Naqqoshlik O'qitish--Moliya T. 2010.
20. Bulatov S.S., P.P. Shabaraton N. A. Mansurov. Naqqoshlik O'Fan va texnologiya T. 2010. (uslubiy qo'llanma).
21. Gulomov K. Ashyolarga badiiy ishlov berish. T., O'qitish, 2004.
22. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.1-2.-T., O'zMU nashriyoti, 2000-2001.
- 23.www.ziynet.uz
- 24.www.tdpu.uz

Ilovalar




Somoniylar maqbarasi .



1



2



3



4

1. Buxorodagi Kalon machiti minorasi. 2. Jarqo'rg'on minorasi 3. Buxorodagi Poi-Kalon machiti.
4. Buxorodagi Kalon machiti.